

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI**

TOLIPOV NURBEK ABDUG‘AFFAROVICH

MAVZU: KESH-VOHASINING ARXEOLOGIK O‘RGANILISHI

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

Ilmiy rahbar: Ibragimov R.

TOSHKENT - 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	3 – 5
 I Bob. Kesh vohasining qadimgi davr arxeologik yodgorliklarini o'rganilishi.	
1.1 Ilk temir davri arxeologik yodgorliklari tarixshunosligi.	6–12
1. 2 Antik davr arxeologik yodgorliklari.....	13–27
 II Bob. Kesh vohasining O'rta asrlar davri arxeologik yodgorliklari.	
2.1 Ilk o'rta asrlar arxeologik yodgorliklari.....	28 – 41
 2.2 IX-XIII asrlarda arxeologik yodgorliklarning o'rganilishi. ...	42-53
 2.3 Kesh vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri tarixi va madaniyatiga tutgan o'rni.....	54-58
 XULOSA.....	
	59 – 60
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.	61-63
 Ilova.	

KIRISH

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng mamalakatimiz rivojlanishning turli jabhalarida tub o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Jumladan ijtimoiy fanlarga bo'lgan qiziqish tobora kuchayib, tariximizning dolzarb muoammolari izchil va chuqurroq o'rganish, yuksak tarixiy-madaniy an'analarini targ'ib qilish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.¹

Shu jihatdan Respublikamiz prezidenti I.A.Karimov "Haqqoniy tarixni bilmay turib o'zlikni anglash mumkin emas"², deganlaridek vatanimiz tarkibiy qismi bo'lgan Kesh vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri arxeologik yodgorliklari, xususan, ilk temir davridan o'rta asrlargacha bo'lgan davrlarga oid ilk shahar manzilgohlar, diniy inshootlarni o'rganish orqali qadimgi va o'rta asrlar tarixi va madaniyatini yoritib berish tarixchi mutaxassis olimlar oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. YUNESKO Bosh konferensiyasining 32-sessiyasida Shahrisabz shahrining 2700-yilligini nishonlash haqida qaror qabul qilindi. Shu munosabat bilan e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasining prezidenti I.A.Karimovning "Shahrisabz shahrining 2700-yilligi nishonlashga tayyorgarlik to'g'risida" (2002-yil 29 mart) qarorlari jahon tarixi va madaniyatida alohida o'rin tutgan Shahrisabz shahrining yubley tadbirlariga tayyorgarlik ishlarni jadallashtirib yubordi. Bu sana munosabati bilan O'zbekiston Respublika Prezidenti tashabbusi bilan Shahrisabz shahrining tarixiy yodgorliklarini ta'mirlash va tiklash ishlari amalga oshirildi.

Mavzuning dolzarbligi. Qashqadaryo vohasining yirik hududlaridan biri bo'lgan Kesh qadimdan o'zining ko'hna va boy tarixiga ega. Bu hudud o'zining uzoq tarixi davomida O'rta Osiyo sivilizatsiyasida muhim siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy etnik va madaniy ahamiyat kasb etgan mintaqaga bo'lgan. Shu sababli Kesh vohasi tarixini o'rganish O'rta Osiyo tarixining bosqichlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бусағасида ҳафсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. Т, "Ўзбекистон", 1997, 137-6

² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йук.Т Шарк, 1998,29-6

Kesh vohasi tarixini yoritishda vohaning qadimgi shaharlari Uzunqir, Sangirtepa, Podayotoqtepa va boshqa yodgorliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqot natijalarni o'rganish ham dolzarb vazifalardan biridir. Vohaning o'rta asrlar davri shaharlari madaniyati, me'moriy yodgorliklarini, tarixiy-madaniy jarayonlarini va shaharsozlik madaniyati masalalarini yangicha ilmiy asosda o'rganish, mavjud ilmiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilishbugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda Kesh tarixining bir qator dolzarb masalalarini o'rganishda aniq va haqqoniy tarixiy yondashuv muammosi muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. O'zbekistonning qadimgi shaharlarida bo'lib o'tgan tarixiy jarayonlarni arxeologik va yozma ma'lumotlar asosida qiyosiy o'rganish muhimdir.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Kesh vohasida turli yillarda keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, bu tadqiqotlar natijasida vohaning qadimgi va o'rta asrlar tarixiga doir qimmatli ma'lumotlar to'plangan.

Vohaning o'rta asrlar tarixiga oid muhim ma'lumotlar IX-XII asr manbalarida keltirilgan. Mazkur manbalarda Kesh vohasining geografik joylashuvi, voha aholisining turmush tarzi, vohadagi iqtisodiy-ijtimoiy hayot, Kesh shahrining tuzilishi borasida asosli ma'lumotlar keltirilgan. Ibn Havqal, Al-Muqaddisiy kabi tarixchilar aynan shunday qimmatli ma'lumotlarini o'z asarlarida keltirib o'tgan.

XX asrdan boshlab esa vohada arxeologik tadqiqotlar olib borila boshlandi. Dastlabki tadqiqotlar vohada sharqshunoslar tomonidan olib borildi. Vohada V.V.Bartold, V.A.Vyatin, B.Denikelar ilmiy izlanishlar olib bordilar. 1926-yilda Tarixiy topografiyani o'rganish uchun Shahrisabzga A.Yu.Yakubovskiy jo'natildi. 1930-yillarda Shahrisabz obidalari Ya.G'.G'ulomov, T.M.Mirg'iyosov, S.K.Kabanov, S.A.Sudakov va suratchi N.S.Lojkin tomonidan o'rganildi.

1940 – yillarda M.E.Masson tomonidan ham vohada arxeologik tadqiqotlar olib borildi. S.K.Kabanov tomonidan esa 1946-1950 yillarda arxeologik qidiruv

ishlari olib borildi. 1955 yilda V.D.Jukov Kindiklitepa manzilgohida qazishmalar o'tkazdi. 1970-1980 yillarda N.I.Krashennikova tomonidan olib borilgan izlanishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi va vazifasi. Kesh vohasi qadimgi va o'rta asrlar davriga oid arxeologik yodgorliklarida amalga oshirilgan tadqiqot ishlari natijasida So'g'dning qadimgi davriga oid tarixi va madaniyatini chuqur va xolisona yoritib berishdan iborat. Unda Kesh vohasi tarixini, xususan shaharsozlik madaniyati masalalari, diniy qarashlari, savdo munosabatlari ularning voha madaniy va iqtisodiy taraqqiyotida tutgan o'rni masalalarni atroflicha o'rganish va xolisona yoritib berish masalasi asosiy o'rin tutadi. Mavzuni yoritish jarayonida quyidagi vazifalarni bajarish rejalashtirilgan:

XX asrning 50-80 yillarida vohaning arxeologik yodgorliklarida O'zRFA arxeologiya instituti va Tosh.D.U. (O'z.M.U.) arxeologiya kafedrası tomonidan amalga oshirilgan arxeologik tadqiqot ishlarini bayon qilish;

Mazkur yodgorliklarda olib borilgan strategik va topografik ishlarning natijalarni bayon qilish;

Arxeologik tadqiqot natijalarida to'plangan materiallar asosida nashr qilingan ilmiy ishlarni, risola, ilmiy maqolalarni tizimli kompleks tarzda taxlil qilish asosiy maqsad qilib olindi.

Kesh – Shahrisabz yodgorliklarida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlarni zamonaviy ilmiy qarashlar asosida talqin qilish.

Malakaviy bitiruv ishining davriy chegarasi. Mavzuning xronologik davri qadimgi davrdan o'rta asrlargacha, ya'ni mil.avv I ming yillikdan to XIII asrlar oralig'ida belgilab olindi.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi - ikki bob, besh paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

I Bob. Kesh vohasining qadimgi davr arxeologik yodgorliklarini o'rganilishi.

I.1 Ilk temir davri arxeologik yodgorliklari tarixshunosligi

Qashqadaryo vohasi (Janubiy So'g'd) Markaziy Osiyoning qadimiy tarixiy-geografik hududlaridan biridir. Vohaning boy tarixi ko'plab tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Qashqadaryo viloyati ko'p sonli arxeologik va me'morchilik yodgorliklari, xalq hunarmandchiligi markazlari keng tarqalgan o'lkadir. Vohaning qadimiy tarixi ham muhim voqealarga boy. Viloyat qadimgi savdo yo'llari chorrahasida joylashgan bo'lib, bu to'g'risidagi ma'lumotlar yozma manbalarda ham keng saqlangan¹.

Shahrisabz o'rta asrlarda "Kesh" deb nomlangan qadimgi Nautaka shahri. Bu shaharni "Dilkash", Qubbatul ilm val-abad deb e'zozlangan bu shahar muayyan davrlarda taqdir taqozosi bilan jahon tarixidagi ba'zan shonli, bazida fojeali muhim voqealar markazida bo'lib keldi. XX asr boshida Kitob-Shaxrizabz vohasini arxeologik nuqtai nazardan o'rganish boshlandi, ayniqsa Shahrisabzning O'rta osiyodagi qadimiy va san'at yodgorliklarni himoya qilish uyushmasi tomonidan muhofazaga olingan me'moriy obidalarining o'rganilishi diqqatga sazovordir. 1925-yilda Shaxrizabzga V.V.Bartold, V.A.Vyatkin san'at tarixchisi B.Denike, nemis san'atshunosi E.Kon-Vinerlar kelishdi. Turkiston sharqshunoslik instituti talabasi A.E.Midji rus geografiya jamiyatining Toshkentdagi Turkiston bo'limi etnografiya va arxeologiya sohasi majlisida Kitob va Shahrisabz qadimgi yodgorliklar to'grisida axborat berdi². 1926-yilda Tarixiy topografiyani o'rganish uchun Shahrisabzga A.Yu.Yakubovskiy jo'natildi. 1930-yillarda Shahrisabz obidalarini Ya.G'.G'ulomov, T.M.Mirg'iyosov, S.K.Kabanov, S.A.Sudakov va suratchi N.S.Lojkin tomonidan o'rganildi.

¹ Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳаррир: А.С.Сагдуллаев,Т."Шарқ" 1998. 10-б.

² Массон,М.Е, Пугаченкова Г.А.Шахрисабз при Тимуре и Улугбеке//Археология Средней Азии. II Труды САГУ. Т .1953 18-с.

1936-yilda Arxitektor M.F.Maur Samarqand qadimiy va san'at yodgorliklarni himoya qilish qo'mitasi yo'li bilan tamirlash maqsadida me'moriy obidalar ahvoli bilan tanishishdi. 1938-yilda esa Moskva arxitektura institutining maxsus birgadasi ularning tarixini aniqladi. 1930-yillarning oxirida shaharning batafsil plani yaratilib, unga barcha mahallalar kiritildi.¹

1940-yilda Shahrisabzda O'z SSR San'atshunoslik institutidan arxitektorlar V.A.Voronina va G.N.Gachanovlar ishlashdi. Tarix fakulteti arxeologiya kafedrasining asoschisi M.E.Masson 1942- yilda arxitektor G.A.Pugachenkova bilan bu yerga Shahrisabzni tarixiy-arxeologik va madaniy tarixiy me'moriy nuqtai nazardan o'rganish maqsadida ekspiditsiya uyushtirdi.² 1948-yilda O.A.Suxareva Shaharni etnografik nuqtai nazardan o'rgandi. Qashqadaryo havzasi obidalarni M.E.Masson boshlab berdi. U 1932-yilda Shahrisabz vohasini o'rganar ekan, Qashqadaryo vodiysida kelgusida o'tkazilajak yirik tarixiy-arxeologik ishlarning mavzu rejasini tuzdi. Urushdan keyingi yillarda Qashqadaryo vohasi sharqiy qismi obidalarini o'rganilish tarixini uch davrga bo'lish mumkin.

I-davr 1940-1950 yillar.

II-davr 1960-1970 yillar.

III-davr 1980-1990 yillar.

Tadqiqotlar turli yo'nalishda olib borildi. Kesh vohasi hududidagi manzilgohlarining arxeologik o'rganilishining ilk bosqichi S.K.Kabanov 1946-1950 yillarda olib borgan arxeologik ekspeditsiyalari bilan bog'liq.³ Ilk temir davriga oid yodgorliklar S.K.Kabanov tomonidan bundan 60-yil oldin o'rganilganligi va bular Tanhozdaryo va Yakkabog'daryoning quyi qismlarida topib tekshirilgan edi.

¹ Якубовский. А.Ю. ГАИМК-ИИМК и археологическое изучение Средней Азии за 20-лет. // М.1940 16-с.

² Массон.М.Е, Пугаченкова Г.А.Шахрисабз при Тимуре и Улугбеке//Археология Средней Азии. II Труды САГУ. Т .1953 18-с.

³ Кabanov.С.К. Керамический комплекс из наслоений древнего городища в Китабе// ИМКУ.Т. 1962 42-53с.

Qashqadaryo vohasining quyi qismida o'tmish obidalarni aniqlash va tadqiq etish bobida uzoq yillar ish olib borgan S.K.Kabanov manbalardagi bu ikki qarashga munosabat bildirmaydi, ammo Nautaka va Ksenippani hozirgi Qashqadaryo viloyatining yuqori yoki quyi qismida to'g'ri kelishi masalasida baxs yuritadi. S.K.Kabanov Nautakani ham Ksenpani ham shaharlar tarzida emas viloyatlar sifatida qaraydi. Yozma manbalarda ikki viloyat Nautaka va Ksenippa ma'lum deydi S.K.Kabanov: Uning fikriga ko'ra Nautaka vohaning yuqori qismi, Ksenippa esa quyi qismi yani Ksenippa Naxshab (Qarshi) Nautaka esa Kesh (Shahrissabz) hududiga to'g'ri keladi.¹

M.E.Masson esa bunga zid fikrni qo'llab-quvvatlaydi, yani uningcha Ksenippa vohaning yuqori qismi, Nautaka bo'lsa quyida joylashgan. Qadimshunos olim bunda Navutoqning-quyi viloyatning asosiy shahri yerqo'g'on shahri xarobasi o'rniga to'g'ri kelishini qayd etadi.² Nautaka va Ksenippaning qaysi biri Kesh yoki Naxshabga to'g'ri kelishi to'g'risida olimlar izlanishlar olib borib bir to'xtamga kelishgani yo'q. Keshda Qaynarsoy tizmasi buloqlari asosida shakllangan Sho'robsoyning quyi oqimida Uzunqir, Sangirtepa, Podayotoqtepa bir-biriga yaqin joylashgan.³

ToshDU O'rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasining 1976-1979 yillarda A.S Sagdullayev tomonidan olib borgan tadqiqotlari natijasida Qashqadaryo vohasining sharqiy qismida ham bir qator ilk temir davri yodgorliklari ochildi. Daratepa yodgorligida o'tkazilgan ko'p yillik tadqiqotlar natijasida ushbu hudud uchun xos bo'lgan mil.avv. VII-IV asrlarga oid turli turar joylar tuzulishi qazib o'rganildi.⁴

1981-1984 yillarda N.I.Krashennikova boshchiligidagi ekspeditsiya tomonidan Sho'robsoyning o'rta oqimida mil.avv.I ming yillik birinchi yarimiga oid Sangirtepa, Uzunqir, Podayotoqtepa yodgorliklari ochib o'rganildi, hamda ularning mudofa devorlarni o'rganish borasida tadqiqotlar o'tkazildi. Bu yerda

¹ Кabanov C.K. В оазисах и степях Кеша и Нахшаба Т., "Узбекистон", 1988, 37-с.

² Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳаррир: А.С.Сагдуллаев.Т."Шарқ" 1998. 12-б

³ Шахрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, Тошкент, Шарқ, 2002, 21-б

⁴ Равшанов П. Қарши тарихи. Т., Янги авлод, 2006, 105-б

o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki Uzunqir, Podayotoqtepa yodgorliklari taxminan 700-800 metr uzoqda joylashgan Sangirtepa yodgorligi esa Uzunqir yodgorligidan janubda joylashgan bo'lib orasidagi masofa taxminan 1 km ni tashkil etadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki Sangirtepaning ilk shakllanish davri mil.avv. IX-VIII asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda bu yerda mustahkam paxsa devor bilan o'ralgan yirik inshoot barpo etiladi. Mil.avv.VIII-VI asrlarda yodgorlik atroflari o'zlashtirilib, qurulishlar olib borilgan. Tadqiqotlar davomida Sangirtepa manzilgohidan mil.avv. IX-VII asrlarga oid odam sklet suyagining qoldiqlari ham topilgan.¹ Tadqiqotlar Sangirtepaning balandligini 8 m va o'lchamlari 85x65 m bo'lgan to'rtburchak shaklidagi markaziy tepalikda amalga oshirildi. Sangirtepa janubiy va g'arbiy tomonlaridan mudofaa devorlari bilan o'ralib, uning umumiy maydoni 3 gektardan iborat bo'lgan. Sangirtepa markaziy tepaligining shimoliy-g'arbiy qismida amalga oshirilgan shurf bu yerda madaniy qatlamning qalinligi 6.85 metrga teng bo'lganligini ko'rsatadi.² Strategiya markaziy tepaning ushbu qismida hayot murakkab kechganligi va to'rtta qurilish davri mavjudligini ko'rsatadi. Tepalikka chiqish joyida uning g'arbiy va shimoli-g'arbiy tomonlarida amalga oshirilgan shurf ishlari natijasida biror bir yangi malumot qo'lga kiritilmagan, lekin ularning natijasida yodgorliklarning ushbu qismida yashash joylari bo'lganligi, gumus va kul qatlamlar esa ushbu joydan mol saqlash uchun qo'ra sifatida foydalanganligini ko'rsatadi.³

Sangirtepadagi arxeologik-strategifik tadqiqotlar natijasida manzilgohning shakllanish tarixi, uning o'zlashtirilishi va tashlandiq holga kelish bosqichlari aniqlandi. Sangirtepaning ilk shakllanish davri mil.avv.IX-VIII asrlarga oid. Ushbu davrda bu yerda mustahkam paxsa devor bilan o'ralgan yirik inshoot qad

¹ Лушпенко О.Н. К истории изучения поселений раннежелезного века долины Кашкадарьи // Древняя и средневековая археология Средней Азии Т., Фан 1990. 27-с.

² Қадимги Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳарир: А.С.Сағдуллаев.Т."Шарқ" 1998. 47-б.

³ Кабанов С.К. В оазисах и степях Кеша и Нахшаба Т., "Узбекистон" , 1988, 37-с.

ko'targan. Birinchisi eng dastlabki davr uchun tashqi paxsa devorining mavjudligi xos bo'lib, yodgorlikning butun hayoti davomida saqlanib qolgan ushbu devor mudofaa maqsadlarida xizmat qilganligini taxmin qilish mumkin.¹

Manzilgohning o'zlashtirilgan qismini mustahkamlash ehtiyoji paydo bo'ladiki, natijada qarib 3 gektarga teng hudud devor to'siq bilan o'raladi. Sangirtepada mustahkam va qalin devorlar bilan o'ralib, mahalliy hukumdor qarorgohiga aylanadi.² Arexologik ma'lumotlarning dalolat berishicha mil.avv IV-III asrlarga kelib Sangirtepada hayot to'xtaydiki, tashlandiq va tushkunlik holatlari ham buni ta'sdiqlaydi.³

Bu turdagi yodgorliklar ilk temir davrida Marg'iyona, Baqtriya va So'g'diyonada keng tarqalgan ko'p xollarda ular uncha katta bo'lmagan hududlarni egallagan, lekin ularning mudofa devorlari bilan o'ralganligi kuzatiladi bu belgi harbiy strategik ahamyatini bildiradi. Xuddi shunday belgilar Sangirtepada ham xos bo'lib, uni ham yirik shahar qo'rg'oni bo'lgan yodgorliklar toifasiga kiritish mumkin. A.Sagdullayev va N.I.Krashennnikovalarning fikriga ko'ra o'z davrida Uzunqir va umuman viloyatning nomi Nautaka deb atalgan."

Qadimgi So'g'd so'zi "Nautaka" deb tarjima qilinadi. So'zning "Tak" qo'shimchasi "Kuch" , "qudrat", "quvvat" mano'sida izohlanib, ushbu tushuncha Uzunqir o'rnida mustahkam va qalin mudofaa devorlari bilan o'ralgan yirik qal'a harbiy tayanch markazining bunyod etilishi jarayonidan kelib chiqanligini taxmin qilish mumkin."⁴

Podayotoqtepa va Uzunqirda ham arxeologik tadqiqotlar o'tkazilib, ularning mudofaa devorlari o'rganildi. Tadqiqotlar natijasida Sho'robsoy yoqalaridan mil.avv.I ming yillik boshlarida qadimgi dehqonchilik vohasi shakllangan. Ilk temir davri So'g'diyonada alohida hududiy tartib guruhida bo'lib markaz vazifasini bajargan bir necha manzilgohlar turlari mavjud edi.

¹ Лушпенко О.Н. К истории изучения поселений раннежелезного века долины Кашкадарьи // Древняя и средневековая археология Средней Азии Т., Фан 1990. 27-с.

² Ешов Б.Ж. История и культура Согдианы VII-IV вв Т.,1999, 10-с.

³ Қадимги Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳарир: А.С.Сагдуллаев.Т."Шарк" 1998.48-б.

⁴ Крашенинникова Н.И. Прошлое Китабе. // Вехи времен. Т., 1989.30-с.

1983-yilda Uzunqir mudofaa devorining saqlanib qolgan qismidan N.I.Krashennikova tomonidan tadqiqotlar o'tkazildi. Tadqiqotlar davomida devorning tashqi tomonidan unga kirish joyi va bitta shinakka ega bo'lgan xona qoldiqlari ochib o'rganildi. Xona devorlari va sathi somon bilan suvalgan. Sathida sopol siniqlari va bronzadan ishlangan kamon o'qlarining uchlari topildi. Tadqiqotlarga ko'ra qa'la devori ahomoniylar davrida qurilgan degan xulosa chiqadi.¹

A.S.Sagdullayev va N.I. Krashennikovalar olib borgan tadqiqot ishlari natijasida Uzunqirni Nautaka shahrining markazi hisoblashgan, keyinchalik markazi hozirgi Kitob shahri o'rniga ko'chadi.² Uzunqirda mudofaa devori va manzilgoh hududini o'rganish borasida ishlar 1986-yilda A.S.Sagdullayev boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya tomonidan qayta tiklanadi. N.I.Krashennikova tomonidan qazishmalar o'tkazilgan joyda devor tashqi tomoni aniq tas'viri ko'zga tashlanadi. Uzunqir mudofaa devori janubiy qismini o'rganish davom ettirildi.³

Uzunqir mudofaa devorida qazishmalar o'tkazishdan oldingi balandligi 6 metr, tushgan qismini tashqi tomonida 5 metr, ichki tomonida 4 metrga teng. Devor tashqi tomoni tozalash davomida to'g'ri burchakli rejaga ega bo'lgan burji ochilib, uning ichida xona mavjud bo'lgan. Burjning barcha devorlarida tashqi tomondan pilyastra(to'rtburchak shaklidagi yarim ustun) bo'lganligi aniqlanib, janubiy devorda ular ikkita g'arbiy va sharqiy devorda bittadan bo'lgan.

Burchaklardagi yarim ustunlarda nayza shakldagi "aldamchi" shinaklar mavjud bo'lmasdan ularning oralig'ida asosiy devordan bo'rtib chiqqan va mayda tosh yotqizilgan poydevorda turgan jangovar shinak mavjud bo'lgan. Burjning sharqiy va g'arbiy devorlarida yana ikkita jangovar shinak mavjud.

Burjga kirish joyi shimoliy tomondan tor yo'lak orqali bo'lib, ushbu yo'lak yuqori qismi qiya qilib qo'yilgan g'ishtlar yordamida qurilgan arksimon shaklga

¹ Кадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавхалар//Маъсул муҳарир: А.С.Сагдуллаев.Т."Шарк" 1998.46-47б.

² Ешов.Б. Узбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи Т.2012 67-69 б.

³ Сагдуллаев А.С. К вопросу о второй столице Согдианы. // СА 1988 223-230 с.

ega.¹ Uzunqir mil.avv VII asrdayoq to'g'ri burchakli burjlar va burj ichi xonalari ustun, jangovar hamda soxta shinaklari bo'lgan ilk mudofaa devorini tiklashda foydalanilgan. Istehkom usullari O'rta osiyo janubidagi o'sha davrda mavjud bo'lgan boshqa hech bir joyda qayd etilmagan.² Bu usul boshqa obidalaridan ancha keyinroq kuzatilgan, lekin Old Osiyo yodgorliklari bilan ko'pgina umumiy jihatlarga ega. Masalan, Bobilning (mil.avv VII-VI asrlar) va ba'zi Mesopatamiyadagi boshqa yirik shaharlarning mudofaa devorlari tomonidan Old Osiyo an'analari qo'llanilganligidan dalolat beradi.³

Burjdan sharqiy tomonda umumiy uzunligi 20 metr bo'lgan devor qismi va yana bir burj ochiladiki, u o'z muhandislik qurilishiga ko'ra birinchisini qaytaradi. Ikkinchi burj yaxshi saqlanmagan devor ichki yo'lagi yoki o'q otilish uchun ishlatilgan maxsus joylarni aniqlash maqsadida mudofaa devorning sharqiy qismida birinchi va ikkinchi burjlar oralig'ida qazishmalar amalga oshirildi. Tadqiqotlar natijasida birinchi devorning ikki tomoni bo'lagi va jangovar shinaklar chiqish joyi ochildi. Ikkinchi devor ichki aylanasing burj xonasidan sharqiy qismida yo'lak chiqish joyi ochib o'rganildi. Devorning yuqori qismidan turib amalga oshirilgan ikkinchi mudofaa chizig'i mavjud bo'lgan. Ikkinchi davrda birinchi devorga tutash qilib, uning g'ishtlari bilan bir xildagi xom g'ishtlardan qalinligi 1.6 metr bo'lgan yangi qo'shimcha devor qurilgan, devorning umumiy qalinligi 3.45 metrga yetadi.⁴

Keyingi uchinchi davrda ichki tomon bo'yicha qalinligi 1.2 metr teng bo'lgan yana bir qo'shimcha devor quriladi. U burjlarga olib boruvchi yo'llarni berkitib qo'yadi. Uzunqirning shimoliy-g'arbiy qismida amalga oshirilgan

¹ Равшанов П. Қарши тарихи. Т., Янги авлод, 2006, 10-б.

² Крашенинникова Н.И. Прошлое Китабе. // Вехи времен. Т., 1989.30-с.

³ Сагдуллаев А.С. Раскопки и разведки в долине Кашкадарьи // АО 1979. М., 1980 504-с.

⁴ Қадимги Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳаррир: А.С.Сагдуллаев.Т."Шарқ" 1998.46-47б.

shurfda qo'lga ishlangan oshxona idishlari bo'laklari, hayvon suyaklari, o'simliklar urug'larining qoldiqlari topilgan.

Tadqiqotlar natijalari va shurflardan olingan ma'lumotlar Uzunqir o'rniga ilk temir davri shahar markazi mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.¹ Uzunqir manzilgohning mudofa devorini o'rganish davrida qo'lga kiritilgan topilmalar janubiy So'g'dning ilk temir davri mudofaa me'morchiligiga doir yangi ma'lumotlar berdi. Uzunqirni maydoni 70 gektarga teng bo'lib mil.avv.VIII-VII asrlarga ta'luqligini aniqlangan.² Uzunqirdagi g'arbiy, sharqiy va janubiy mudofaa devorlari qoldiqlarining qalinligi 20 metr bo'lgan. Sho'robsoyda topilgan sun'iy xandaq o'rab olgan bo'lib, shimoliy tomon uchun bunday xandaq vazifasini Sho'robsoyning o'zi bajargan. Uchta joyda darvozalar o'rni aniqlanmagan.³

Keyingi davrda Uzunqir yanada kengroq o'zlashtirildi. Uning xuddi shu darajada kengayishi aholining himoyalash maqsadida istehkomlar qurish ehtiyoji tug'ildi. Mil.avv.VII-VI asrlarda murakkab mudofaa tizmi: Xom g'ishtlardan qurilgan mustahkam devordan bo'rtib chiqqan, burj xonalariga va plyastrlariga bo'lgan burjlar bilan mustahkamlangan mudofaa devorlari vujudga keladi. Lekin dastlabki davrda Uzunqir devor qalinligi, burjlar oralig'ida bor yo'g'i 1.85 metr ga teng bo'lgani unga qo'shimcha ikkinchi devorning qurilishi shu tufayli bo'lsa kerak.⁴

Markaziy Osiyo janubidagi mil.avv. I ming yillik o'rtalariga oid bir qator yodgorliklarda o'tkazilgan tadqiqotlar ularning qurilishida o'zgacha jihatlar ustunlik qilganligini ko'rsatadi. Dastlab ularning ko'pchiligi qalin devorlarga ega bo'lgan. Devorlar tashqi qirralari qiyaroq shaklda bo'lib devorlar mustahkamligini oshirgan.

Devorning tashqi tomoni bo'ylab o'tgan mustahkam xandaq ham xuddi shu vazifani bajargan bunday tuzilishga ega bo'lgan devorlardan faqat bir tizm devori

¹ Сагдуллаев А.С. Лушпенко О.Н. Новые данные к изучению древней Согдийских поселений // 1989 41 -с.

² Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳарир: А.С.Сагдуллаев.Т."Шарқ" 1998.46-47б.

³ Қарши кичик альбом Т., Маънавият, 2006. 16-17 б.

⁴ Ртвеладзе Э.В. Буяков. Ю.Ф, Сулаймонов. Р.Х. Қарши Т. Маънавият, 2006. 4-5 б.

yuqoti qismidan turib o'q otishga asoslangan mudofaa amalga oshirilgan.¹ Uzunqir mudofaasining kuchaytirilishi dastlabki devorni doimiy ravishda qalinlashtira borish yo'li bilan amalga oshirilgan bo'lib, boshqa yodgorliklarda ilk devor keyingi devorlar uchun poydevor vazifasini o'tagan.²

Tadqiqotlar natijalari va shurfdan olingan ma'lumotlar Uzunqir o'rnida ilk temir davri shahar markazi mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Qadimgi shahar qurilishida joyning tabiiy-geografik xususiyatlaridan muvafaqiyat bilan foydalanilgan. Bu narsa birinchidan, uning joylashuvida, ikkinchidan, mudofaa devorining ilonizi shakldagi janubiy qismi ko'rinishida o'z aksini topgan. Uzunqir va uning atrofini suv bilan taminlash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi suv Sho'robdan va Zax bulog'I soyi hamda irmoqlaridan olingan bo'lib, u Uzunqirdan shimolroqda oqib o'tgan. Xozirgi davrda bu hudud Pistaxon kanali bilan sug'oriladi. U mahalliy aholi ma'lumotlariga ko'ra, ilgari bevosita Uzunqir devorlarigacha kelgan bo'lib, endilikda Dyuper yordamida Sho'robsoy orqali suvni uzatadi. Kanalning boshlanish qismida o'tkazilgan tadqiqotlar kanalning qadimiyligi, suvni Qashqadaryodan, yangi qishloq yonida oqib o'tuvchi irmoqdan danba yordamida olishi va yana ikkita boshlanish qismida ega bo'lganligini ko'rsatadi.³ Uzunqirdagi arxeologik tadqiqotlar uning hududida hayot mil.avv. I ming yillik boshlarida paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Manzilgoh markaziy qismidagi shurfdan qo'lga kiritilgan va qadimiy manzilgoh mavjud bo'lganligidan dalolat beruvchi mill.avv.VII asrga oid spool siniqlari majmuasi shuni isbotlab turadi. Janubiy So'g'da ilk temir davrida boshlangan tarixiy jarayonlar natijasida 3-4 gektar kattalikdagi manzilgohlar vujudga keladi va ular keyinchalik qalin hamda mustahkam mudofaa devorlariga ega bo'lib, dastlabki shaharning qarorgohiga aylanadi.⁴

Janubiy So'g'dagi ilk shahar shakllanish va rivojlanishiga misol qilib Sangirtepa va Uzunqirni ko'rsatish mumkin. Uzunqirning mudofaa me'morchiligi

¹ Бартольд В.В. История культурной жизни Туркистана М: Наука 1963. 263-с.

² Кабанов С.К. В оазисах и степях Кеша и Нахшаба Т., "Узбекистон", 1988, 37-с.

³ Қадимги Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳарир: А.С.Сағдуллаев.Т."Шарқ" 1998.

⁴ П Равшанов. Қарши ва Кеш тарихи манбалари. Қарши 2005. 12-13 б.

Qashqadaryo vohasidagi ilk temir davri madaniyating yuqori darajada taraqqiy etganligidan guvohlik beradi. Bu o'ziga xos mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan yangilikdir. U Markaziy Osiyo janubidagi ilk shahar madaniyati markazlaridan biri bo'lib, butun qadimgi sharq uchun umumiy bo'lgan taraqqiyot qonunlari asosida rivojlangan. Lekin vaqt o'tib bu jarayon Uzunqirda to'xtadiki, buni eng avvalo shug'orish tizmidagi o'zgarishlar va qadimiy shahar mudofaasi ahvolidagi o'zgarishlar bilan izohlash mumkin. Mil.avv. III-II asrlarda markaz Kitob o'rniga ko'chadiki, fikrimizcha bu avvalo ushbu hududda shahar madaniyatining taraqqiyoti uchun barcha zarur shart -sharoitlar mavjudligi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Uzunqir janubiy So'g'da ilk shahar tuzilmasining shakllanishiga misoldir.

U yirik o'troq dehqonchilik vohasining hamda janubiy So'g'dagi alohida viloyatning xo'jalik, ma'muriy, harbiy va madaniy markazi bo'lgan. XX asrda qishloq xo'jalik maqsadlarida manzilgoh xududi tekislab yuborilgani sababli biz hozir ilk shaharning ichki tarkibiy tuzilishi to'g'risida hech narsa deya olmaymiz.

Markaziy Osiyo dastlabki shaharlariga hos bo'lgan ushbu belgilarning barchasi ilk temir davrida ular o'zlaring muhim markaz bo'lib xizmat qilganligidan dalolat beradi janubiy So'g'd ilk temir davri tarixining muhim jihatlaridan biri Sangir I va Uzunqir I turidagi sopol idishlarning vujudga kelishidir. O'troq dehqonchilik madaniyatlari taraqqiyoti masalasi, muammoning quyilishi tarzda olimlar asrlarida o'z ifodasini topgan va keying davrda aynisa tadqiqotchilar etiborni o'ziga jalb qila boshladi.¹

Qashqadaryo vohasi (Janubiy So'g'd) mil.avv. I ming yillikning boshlaridayoq Baqtriya Tarixiy madaniy birligining tas'ir doirasiga kirgan bo'lib turli etnik asoslarga ega bo'lgan qabilalar o'rtasidagi aloqlar Baqtriya hududidan aholining So'g'da ko'chish jarayonlari buning uchun asos bo'lgan.

Qadimgi Baqtriya bilan bevosita qabilalarning janubiy So'g'dga kirib kela boshlashi geografik sharoitlar bilan asoslanadiki, ushbu viloyat Baqtriya bilan

¹ Кабанов С. К. Археологические разведки в Шахрисабзком оазисе 109-с.

bevosita chegarada joylashgan. Janubiy So'g'dagi eng qadimgi manzilgohlarning yopiq kechuvlari orqali o'tuvchi Amudaryo bo'ylari orqali o'tuvchi yo'llar yoqasida joylashganligi ham bu jarayon uchun xos xususiyatdir.¹

Samarqand tog'idan tog'lar orqali ajralgan janubiy So'g'd mil.avv. I ming yillikning birinchi yarimida tarixan Shimoliy Baqtriyaga yaqin turgan bo'lib o'rganilayotgan hudud yodgorliklardan qo'lga kiritilgan topilmalar buning yorqin isbotidir. Geografik sharoit So'g'dning viloyatlarida o'ziga xos moddiy madaniyat xususiyatlari shakllanishiga olib keldiki, bu xususiyatlar yuz yilliklar davomida saqlanib qolgan. Bunday farqlar ilk temir davridayoq kuzatiladiki, Janubiy So'g'da bu davrda ilk shaharlar shakllanishi jarayonlari ancha rivojlanib boradi. Sangirtepa va Uzunqir ma'lumotlari shundan dalolat berdi.² O'troq dehqonchilik va chorvachilik vohalarining kengayishi kelgindi va mahalliy xalqlarning aralashib ketishiga, ilg'or an'analarning qo'shilishi va o'zgartirilishiga, yagona xo'jalik-madaniy turlarning shakllanishiga olib keladiki Sangirtepa topilmalari shundan dalolat beradi. Qulay ob-havo sharoiti unumdor yerlarning mavjudligi ham ushbu jarayonlarga turtki bo'lgan asosiy sabablardan bo'lib bu hol dehqon-chorvador qabilalar tomonidan dehqonchilik va chorvachilik uchun yaroqlik bo'lgan yangi maydonlarning izlash jarayonlarni aks ettiradi.³ Janubiy So'g'dning mil avv. I ming yillik boshlari va o'rtalariga oid yodgorliklarida o'tkazilgan tadqiqotlar, strategik ma'lumotlar va arxeologik majmualar tahlili quydagi o'ziga xos xususiyatlarining ajratish imkonini beradi: aholining voha bo'ylab joylashishi yagona xo'jalik-madaniy turi mustahkamlangan markazlarning qurilishi, qurulish uslubining yuqori darajasi, turli me'moriy rejaviy usullarning qo'llanilishi rivojlangan kulolchilik va metalchilikning vujudga kelishi bilan bog'liqdir.⁴

Janubiy So'g'da ilk temir davriga oid keng darajada o'zlashtirilgan hududlar ko'zga tashlanadiki, ularning o'zlashtirilishi keying davrlarda ham davom etadi. Mil.avv. IX-VIII asrlardayoq, keyinchalik mil.avv.VII-VI asrlarda

¹ Qadimgi Kesh-Shaxrisabz tarixidan lavhalar//Ma'nsur muharrir: A.C.Sagdullaev.T."Shark" 1998.58-6.

² Лушпенко О.Н. К истории изучения поселений раннежелезного века долины Кашкадарьи // Древняя и средневековая археология Средней Азии Т., Фан 1990.24-с.

³ Сагдуллаев .А.С Древние пути на юге Узбекистана// ОНУ 1981 33-38 с.

⁴ Крашенинникова Н.И. Раскопки в Китабском районе//АО 1983. М. 1985, 533-534 с.

ham bu yerda Qashqadaryoning quyi qismi va o'rta qismida shakllangan ikki viloyat va hududlar o'rtasidagi bir qadar aniq chegara shakllandi. Ilk temir davrida xo'jaliklar, madaniyat va savdo yuksak darajada rivojlanib ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi xususiy mulkchilik va ayri boshlashi keltirib chiqargan, xom ashyo hunarmandchilik buyumlari savdo mahsulotiga aylangan. Ilk temir davrining xo'jalik sohasida erishgan eng katta muvaffaqiyatlaridan biri qadimgi dehqonchilikning keng yoyilishidir.¹

¹ Кабанов.С.К Археологические разведки в Шахрисабзком оазисе. 1951.77-с.

I. 2 Antik davr arxeologik yodgorliklari.

Antik davrda (mil.avv IV asrning oxiri milodning IV asri) O'zbekistonning janubiy o'lkasi bo'lmish Qashqadaryo vohasi aholisi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan bog'liq bir qataor muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Tadqiq qilinayotgan o'lka O'zbekistonda antik davr markazlashgan davlatlarning vujudga kelishi va rivojlanishi jaroyonidan chetda qola olmas edi.¹

Mil.avv III-II asrlar bo'sag'asida sharqiy Qashqadaryoning poytaxti Sho'robsoy vohasidan Osuvdaryoning o'rta oqimiga, Kitob shahri rayoniga ko'chadi. Kitob shahrining hozirgi imoratlari ostida mil.avv III asr milodiy VII asr qatlamlari yashirinib yotibdi. Antik davrda madaniy aloqalar va o'zar ta'sir (grek va mahalliy madaniyatlar qo'shilishi) shuningdek savdo va pul munosabatlarning jadal rivojlanishi bilan izohlanadi. Bularning barchasi markaziy osiyo turli viloyatlari o'rtasida rasmiy aloqa va savdo yo'llarning shakllanishiga olib keladi.² Antik davr arexologik manbalari Qashqadaryo vohasi aholisining qadimgi diniy qarashlari bilan bog'liq masalani o'rta qo'yish imkonini berdi. Tadqiqotchi olimlarning fikriga tayangan holda A. Omelchenko Janubiy So'g'dning sharqiy qismidagi antik davr manzilgohlarni topologik va ichki tuzulishini quydagicha o'rganib chiqadi: Viloytning markaziy shahri (Suse-Kitob, maydoni 40gektar) alohida tumanlarning sobiq markazlari bo'lgan turli joylarda joylashgan yirik manzilgohlar(Sho'robsoydagi Saroytepa-Olvontepa, maydoni 8-9 gektar: Ayoqchisoydagi-Kattajartepa maydoni 6.5 gektar: Toldisoy va Guldasoydagi Qayrag'ochtepa I va Qayrag'ochtepa II maydoni 10-20 gektar: Qorabog'daryodagi Kattakontepa maydoni 7-8 gektar). Tadqiqotchining fikriga ko'ra janubiy So'g'dning sharqiy qismida joylashgan Antik davr manzilgohlarning umumiy maydoni 130 gektarga teng.

Qashqadaryo vohasi antik davr yodgorliklarida olib borilgan qazishmalar natijasida olingan ma'lumotlar ushbu davr binokorlik uslublari to'g'risida ma'lum

¹ Хасанов.М., и Мехендали.С. Раскопки на Сангиртепе в Кашкадары // Археологические исследования в Узбекистана. 2003 Т "Узб миллий энсклопедияси" 2004 183-б

² Омелченко А. Районирование типология и внутренняя структура поселений античного времени восточной части южного Согда//. Т.2002 88-90с

xulosalar chiqarish imkonini beradi Yakkabog' tumanidagi Parmonqultepa yodgorligida bir qancha xo'jalik xonalari ochib o'rganilgan ularning devorlari paxsadan qurilgan. Bu yerda balandligi 2.2 metr diametri 0.8 metrga teng g'ishtli ustun saqlanib qolingan.¹

Markaz ko'chirilishining siyosiy va iqtisodiy sabablari bor edi. Yangi poytaxt shahar(Xitoy manabalaridagi Suse) markaziy Samarqand So'g'didan jom va Taxtaqoracha dovoni orqali Xisorning g'arbiy tarmoqlaridagi bronza va undan nariga- shimoliy Baqtryaga olib boruvchi qadimgi yo'llar chorrahasida strategik nuqtai nazardan juda qulay joylashgan edi. Dastavval u ellin hukmdorlarning shimoliy Qashqadaryodagi asosiy tayanch punkiti sifatida mo'ljallangan bo'lishi ehtimol. So'ng So'g'da mustaqil dinastiyalarning qaror topishi butun Kitob-Shahrisabz vohasining markazi bo'lib qolgan yangi shaharning ravnaq topishiga ko'maklashdi.²

Bir tomondan sug'orish tizmining rivojlanishi, ikkinchi tomondan Kitob-Shahrisabz vohasining markaziy qismida unumdor yerlar mavjudligi antik davrda kanallar tarmoqlari kengayishiga olib keladi Sho'robsoy va Qashqadaryo oralig'ida kamida uchta kanal aniqlanga soyning qiyi oqimidagi Saroytepa, Nomsiztepa va boshqa manzilgohlarga Qashqadaryodan uzunligi 8 kmdan ziyod bo'lgan Pistaxon kanali chiqarildi, uning sohili bo'ylab to'rt guruh mnazigohlar bunyod etildi. Kanal boshida toshdan qurilgan to'g'on tizmi hozirgacha saqlanib qolgan. Millod bo'sag'asida Oqchidaryoning o'rta oqimi bo'ylab yuqori saroy kanali yaqinida uchta katta bo'lmagan kanal va ehtimol suv ombori ham barpo etilgan.³

Urushdan keyin Respublika Fanlar Akamediyasining tarix va arxeologiy institute Qashqadaryoning o'tmish obidalarni o'rganilishini va tadqiq etishni rejalashtiradi. 1946-yildan boshlangan ish o'z natijalarini berdi.

¹ П.Равшанов. Қарши ва Кеш тарихи манбалари.Қарши “Насаф ” 2005 20-6

² Кабанов С.К. В оазисах и степях Кеша и Нахшаба Т., “Узбекистон” , 1988, 37-с.

³ Қадимги Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳарир: А.С.Сагдуллаев.Т.”Шарқ” 1998.12-6.

Arxeologik tadqiqotlar asosan quyi Qashqadaryoda olib boriladi. Arxeologik qazuv ishlaring dastlabki samaralari haqida S.K.Kabanov maqola va axborotlari e'lon qilinadi.¹

Umuman so'ngi o'rta asrdagi shimoliy Qashqadaryodagi kanallar va ariqlar tarmog'i O'rta Osiyoda eng rivojlangan tarmoqlaridan biri deb hisoblanadi. Voha aholisini hamda sug'orish tizmi asosiy inshootlarini himoyalash uchun uncha katta bo'lmagan qal'alar qurilgan. Podayotoqtepa shunday qal'a namunasidir. Uning yuqori qatlami antik davr boshiga oid uni qurish uchun tanlagan joy qulayligi tufayli mavjud sharoitda mudofaa masalasi maksimal darajada hal qilingan.

Podayotoqtepasoyning burilishida qator joylarda qo'shimcha devor bilan kuchaytirilgan mustahkam soz tuproq qatlami ustiga qad ko'targan. Janub va sharq tomonlarda uni eni 8-11 metr bo'lgan xandaq o'rab turgan: shimol va g'arb tomondan qalinligi 3.5 metr bo'lgan devor yo'nilgan soz tuproqli paxsa hamda xom g'ishtdan iborat bo'lgan.² Sharqiy Qashqadaryo istehkomlari qo'shni mintaqalar mudofaa inshootlari bilan qiyoslash ularning rivojlanganlik darajasi o'sha davrda O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan ilg'or namunalariga mos bo'lganini ko'rsatdi. O'rta Osiyoning ko'hna shaharlarida Markaziy So'g'dagi Afrosiyob va Shimoliy So'g'dagi Nurtepa, Shimoliy Baqtryadagi Qiziltepa hamda Dalvarzintepada olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida shunga o'xshash istehkomlar aniqlandi.

Qayrog'ochtepadan olib borilgan tadqiqotlar juda qiziqarli ma'lumotlarni berdi. Bu yodgorlik Qashqadaryo vohasi o'rta qismida joylashgan yirik antik davr yodgorligi bo'lib, o'z hajmiga ko'ra faqat qadimgi Kitob shahar xarobasidan kichikdir.³ O'zining juda katta hajmiga qarmasdan manzilgoh mudofaa devori bilan o'ralgan, ammo uni o'rab turgan keng va chuqur irmoqlari o'ziga xos xandaq va tabiiy to'siq bazifasini bajargan.

Kitob o'rnidagi antik davr manzilgohi hisoblangan-ilk manzilgoh Qalandartepa yoki Tepai Afrosiyob "Shohnoma" ning boshqa bir mashhur

¹ Кabanov.C.K Археологические разведки в Шахрисабзком оазисе. 1951.61-68с

² Сагдуллаев А.С К вопросу о второй столице Согдианы. // СА 1988 223-230 с.

³ Крашенинникова Н.И. Разрез крепостной стены древнего Кеша. ОНУ,1968 60-с

qaharamon nomi bilan bog'liq. Islomgacha yaratilgan manbalarda bu hudud to'g'risida ma'lumotlar I.Markvant asarida keltirib o'tilgan. Hozir bu ma'lumotlar numizmatik matreallar bilan muayyan darajada to'ldirilmoqda.¹

Vohaning janubidagi Qayrog'ochtepa qal'asi hamda Kitob o'rnidagi poytaxt arki bo'lgan Qalandartepadagi imoratlar Podayotoqtepa yuqori qatlamlari bilan bir davrga oiddir. Mudofaa devorlari baquvvat poydevor ustiga qurilish usuli so'ngi jez, ilk temir davriga borib taqaladi. Bu vaqtda O'rta Osiyo janubidagi shakllanayotgan shaharlar bo'lgan va ilk shahar markazlaridagi qal'alar baquvvat asos poydevor ustida barpo etilgan. Mudofaa devorni shuningdek burjlar ham kuchaytirilgan. Asosan tekis joyda bunyod etilgan, Kitob devori paxsadan ko'tarilgan ustidan to'g'ri burchakli, tamg'a bosilgan bir necha qator xom g'isht terilgan paxsa qatlamlari orasida bordon bosilgan, u zahdan va sho'rlanishdan asragan.²

Arxeologik tadqiqotlar ko'rsatilishicha mil.avv IV-III asrlarda sharqiy Qashqadaryoda uy-joy imoratlari istehkomlar va jamoat binolaridan farqli ravishda, asosan yarim yerto'lalardan va yengil bostirmasi imoratlardan iborat bo'lgan. Bu majmualarda paxsa va antik davrga xos bo'lgan kvadrat shakladagi xom g'isht uncha baland bo'lmagan devorlar va sandallar uchun ishlatigan. Masalan Podayotoqtepa devori ichidan o'zaro bog'lanib ketgan bostirmalar ostida uy-joy majmualari guruhi joylashagan.³ XX asrning 70-80 yillarida N.I Krashennikova rahbarligidagi arxeologiya otryadi eng shimoliy Kitob tumanini tekshirdi. Sho'rob soy daryosi bo'ylab mustahkamlanmagan manzilgohlar aniqlandi.

Bu manzilgohlardan tashqarida kulolchilik ishlab chiqarish izlari ham saqlanib qolgan edi. Ilk antik davr, ilk temir asri manzilgohlarni topilishi katta voqea bo'ldi.

Qudratli mudofaa inshootiga ega bo'lgan bu manzilgohlarni o'rganish natijasida tadqiqotchilar vodiyni butun viloyatga nom bergan qadimgi markazi-

¹Ртвеладзе Э.В. Монеты Кеша// история и культура южных районов средней Азии в древности и средневековья Т 1989.38-44с

²Массон М.Е. Работы Кешской археолого-топографической экспедиция ТАШГУ(КАТЭ) по изучению восточной половины Кашкадарьинской области// Т.1977.31-с

³ Шахрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, Тошкент, Шарк 2002, 76-б

Nautaka aynan shu yerda daryoni o'rta oqimida joylashgan degan xulosaga keladi. Qazish ishlari bu manzilgohlar ellin davrining boshidayoq obod qilingan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.¹

XX asrning 70-80 yillarida Qashqadaryo sharqiy qismining xaritasini tuzish bo'yicha keng miqiyosida olib borilgan ish jarayonida antik va o'rta sarlar davri yodgorliklari rayonlashtirish va tiplarga ajartish va dastlabki dehqonlar guruhlari kelgan davrdan boshlab mintaqa madaniyatining rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan.² O'rta Osiyoning janubi va markazini Janubiy So'g'd orqali bog'lovchi hamda qadimgi davrlardan buyon mavjud bo'lgan ko'hna yo'llar muammosi alohida qo'yildi.³ Ayni mahalda mil.avv III-II asrlarda Kitob hududida ancha mustahkam uylar qurilgan. Ular odatda maxsus asos ustiga joylashgan O'rta Osiyo singari Sharqiy Qashqadaryoda ham qurilishda yoppasida xom g'isht ishlatishga o'tila boshlangan. Antik davrda odatda uylar xar-xil vazifani bajaruvchi bir necha xonadan iborat bo'lgan. Maydoni 20-30 kv metr gacha borgan turar joy xonalaridan tashqari unga albatta xumxona kirgan. Xumxonada (8-12 kv metr) devor yonida yarimgacha yoki bo'g'zigacha yerga ko'milgan don, moy, sharob saqlanadigan bir necha xum bo'lgan bazan xumlar turar joy xonalari ichida joylashtirilgan.⁴

Xonalar shuningdek tashqaridan ko'mir cho'g'i keltirib solingan manqal yordamida ham isitilgan. Xonalarning derazasi bo'lmagan ko'rinadi. Hovliga olib chiquvchi eshiklar odatda ostonaga mahkamlangan yon ustunga o'rnartilgan. IV-asrning oxiri V asrning boshiga kelib esa to'g'ri burchakli g'ishtdan foydalanishga o'tilgan Sharqiy Qashqadaryoning Antik davrdagi me'morchilik va qurilish texnikasi Baqtriya va yanada ko'proq markaziy So'g'd texnikasiga monand bo'lgan. Buning sababi viloyat geografik jihatdan O'rta Osiyoning mazkur ikki madaniy markazi oralig'ida joylashganligidir.

¹ Крашенинникова Н.И. Раскопки в Китабском районе//АО 1983. М. 1985, 533-534 с.

² Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳаррир: А.С.Сағдуллаев.Т."Шарқ" 1998.58-б.

³ Сағдуллаев .А.С Древние пути на юге Узбекистана// ОНУ 1981 33-38 с.

⁴ Кабанов.С.К. Керамический комплекс из наслоений древнего городища в Китабе// ИМКУ.Т. 1962 42-53с.

Makedoniyalik Aleksandr yurishlari bilan bog'liq bo'lgan siyosiy o'zgarishlar, muhimi shu hodisalardan keyin Old Osiyo va Yunonistonnig o'zidan ko'plab kishlar ko'chirib kelganligi O'rta Osiyo mintaqasi moddiy madaniyatining turli jihatlariga turli ta'sir ko'rsatdi.² Sharqiy Qashqadaryoda bu ta'sirning eng dastlabki izlaridan biri Podoyoqtepada va Kitob o'rnidagi qadimgi shahar spool majmualarida kuzatiladi. Yangi shakllar eng avvalo, uzunqadahlar, lagan va kosalar keng yoyilgan. Chekkasi past tomonga yoki ichiga qaytarilgan, tubida xalqasimon bo'rtmasi bo'lgan, baliqdan tayyorlangan taom solishga mo'ljallangan likopchani alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Ko'zalarda tutqich tanasida esa metal qolipni eslatuvchi xalqalar paydo bo'ldi ayrim idishlar qo'sh quloqsimon shakl kasb etdi. Sopol sirtiga ishlov berishning yangi texnikasi joriy qilindi. U qizg'ish jigarran angop bilan qoplanib, jilov berildi, natijada idish laklangandek ko'rinadi.³ Avvalgi davrdan farqli ravishda antik davrda ishlariladigan idishlardan faqat qozon va manqal qo'lda yasalandi. Antik davrda Sharqiy Qashqadaryoda kulolchilik ravnaq topishida yuqori sifatli tuproq qatlamlari muhim rol o'ynaydi.⁴ Bu davrda Janubiy So'g'dning sharqiy qismida ishlangan sopol buyumlar butun O'rta Osiyoda hatto sopol tayyorlashda don qozongan Baqtriya va Samarqand So'g'di singari markazlariga qiyoslaganda ham eng yaxshisi edi. Topilmalardan ma'lum bo'lishicha kundalik ro'zg'orda ishlatiladigan sopol idishlar qishloq kulolari tomonidan yasalgani holda yuqori sifatli sopol asosan shahar markazlarida tayyorlangan.⁵

Sharqiy Qashqadaryoda biroz qiya qilib ishlangan idishlardan mil.avv II-I asrlar bo'sag'asigacha foydalanib kelingan ayni mahalada ko'chmanchilar istilosidan so'ng So'g'd ellin davrlarlarining siyosiy ta'sir doirasi chiqqach, mil.avv II asr sopol majmualarida bir qator yangi shakllar yuzaga keldi. Bikomus va Jom shakldagi qadahlar yaxlit yoki g'ovak poychadagi xush bichim uzun

² Ртвеладзе.Э.В. Этюд по исторической географии Бактрии и Согдианы во время похода Александра Македонского/ ВДИ 2000.104-112с

³ Кадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳаррир: А.С.Сагдуллаев.Т."Шарк" 1998.25-6

⁴ Усмонова.З.И. К вопросу о ранней античной керамике древней области Кеш// ИМКУ 1973 53-55с

⁵ Кабанов.С.К. Керамический комплекс из наслоений древнего городища в Китабе// ИМКУ.Т. 1962 42-53с.

idishlar balandligi 10-20 sm, diametrik 12-16 sm tarqala boshladi.¹ Shuningdek gardish ichkari tomon biroz qayrilgan chuqur kosalar va dardishi tashqariga ancha qayrilgan nisbatan mayda kosalar ham keng tarqalagan edi. Har ikkalasi bronza yoki kumushga o'xshahs rang beruvchi yuqori sifatli qizqish-jigarran yoxud angop bilan qoplangan. Yunonlarning idishlariga juda yaqin bo'lgan idishlar kam uchraydi.² Milodiy I asrga xumlar nisbatan takomillashtirilgan kulolchilik dastgohida yasalgan. Ular hajmi kichik tuxumsimon shakl kasb eta boshlagan, gardishi biroz ichkariga qayrilib, qalinlashtirilgan. Saroytepada to'lqinsimon chiziqlarni orasiga olgan konsentrik uyma naqsh solingan chelaksimon chuqur idishlar topilgan. Katta idishlarning ko'pchiligi angop bilan to'la qoplanmagan, faqat yuqori qimi yaxlit yo'l-yo'l yoki oqma angop berilgan. Bu usul Sharqiy Qashqadaryo sopollarni Kanguyning boshqa viloyatlari, eng avvalo Xorazm(milodiy I asr) bilan yaqinlashtiradi. Sharqiy Qashqadaryoda ko'chmanchilar muhitida rasm bo'lgan shakldagi sopol idishlardan ulov hayvonlarga yuklash uchun bir tomoni tekis bo'lgan suv donlar uchraydi.³ Sharqiy Qashqadaryo Antik manzilgohlarning eng yuqori qatlamlarida ko'pincha sopoldan yasalgan o'ziga hos shakldagi o'choq takliglari ham topildi. Bu mahalliy jamiyatda shimol ko'chmanchilik unsurlari kirib kelishi kuchayganidan dalolat beradi. Antik davrda Sharqiy Qashqadaryoda to'qimachilik keng rivoj topgan. Ip yigirishda markazida urchuq o'rnatiladigan teshik bo'lgan kichikroq sopol gardishlaridan foydalanilgan.⁴

Janubiy So'g'dning Antik davr manzilgohlarida teshiksiz kichikroq sopol gardishlar tez-tez uchrab turadi. Ko'pincha ularga Urchuq o'rnatiladigan gardish uchun tayyorlab qo'yilgan material deb qaralgan. Biroq ularning o'ziga xos shakli boshqa mintaqalardagi topilmalarga o'xshashligi Markaziy So'g'dagi va Shimoliy Baqtriyadagi singari vohada ham gardish soqqalaridan foydalanib o'ynaladigan

¹ Крашенинникова Н.И. Раскопи в Китабском районе//АО 1983. М. 1985, 533-534 с.

² Қадимги Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳарир: А.С.Сағдуллаев.Т."Шарқ" 1998.33-356

³ Сағдуллаев .А.С Древние пути на юге Узбекистана// ОНУ 1981 33-38 с.

⁴ Шаҳрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, Тошкент, Шарқ, 2002, 78-б

o'yin uzoq vaqt mavjud bo'lgan deb taxmin qilishga asos beradi.¹ Pishirilgan loydan sopqon soqqalari hamda loy va hamrga bo'rtma ta'svirlar(ko'pincha quyosh ramzlari, qushlar, hayvonlar) bosish uchun qolib ham tayyorlangan. Sharqiy Qashqadaryodagi bunday buymlar so'nggi antik davrda yuzaga kelgan hamda O'rta Osiyo shimoli aholisi bungacha Sirdaryo o'rta oqimida yoyilgan Qovunchi madaniyati vakili bo'lmish qabilalar bilan bog'liq bo'lgan. Bu kanguy mulki qarorgohi Suse-Keshga ko'chirilgani to'g'risida tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga mos keladi.² Uch tomondan turli tosh jinslarga boy tog'lar bilan o'ralgan Kesh vohasining joylashuvi hunarmandchilik vohalari yaxshi rivojlangan. Mil.avv 539 yoki 529-yillarda O'rta Osiyo ikki daryo oralig'I tarkibiga kirgan va Makedoniyalik Aleksandrning ushbu hududga mil.avv 329-yil bahorida boshlangan yurishigacha shunday bo'lib kelgan. O'z-ozni podsho deb elon qilgan Bessni, E.V.Rtveladze taxminicha Nautaka viloyati tarkibiga kirgan shu hududga Uzunqir panagoh qal'asida asir ilgan degan fikrlar mavjud. Mil.avv 328-yil kuzida Aleksandr Nautaka viloyati hukmdori Sisimtrga qarshi maxsus harbiy yurish uyshtiradi. Bu yurish Nautakaning tor-mor etilishi va Sisimtr asir olinishi bilan yakullanadi.³

Sisimtrning maqomi-u mahalliy suloladan chiqqan hukmdor bo'lgani yoki Ahamoniylar ma'muriyati tomonidan tainlangan satrap bo'lgani nomalum. Biroq boshqa hukmdorlar Oksiart, Xorien, Spetamin va hokozolar eslatilishdan kelib chiqilsa, u Nautakada hukmdorlik qilgan mahalliy sulolasi vakili ekanligi ehtimolga yaqin.

Har qanday holatda ham Nautaka bu vaqtda boshida o'z hukmdori turgan muayyan mulk bo'lgan, binobarin uning huzurida bo'lgan tegishli ma'muriy xizmatlar bo'lgan. Bu viloyatning Makedoniylik Aleksandr vafotidan so'ng mil avv. 323-yildan boshlab mil. avv 312-yilda Salavka I tomonidan davlat tuzgunicha

¹ Қадимги Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳарир: А.С.Сагдуллаев.Т."Шарқ" 1998.11-б

² Кабанов С.К. В оазисах и степях Кеша и Нахшаба Т., "Узбекистон", 1988, 37-с.

³ Ртвеладзе Э.В. Монеты Кеша// история и культура южных районов средней Азии в древности и средневековы Т 1989.38-44с

davom etgan davr, yani qo'sh podsholik orasidagi vaqtda kechgan tarixi haqida amlada hech narsa ma'lum emas.

Mil.avv 321-yilgacha Baqtriya So'g'diyona satrapi Makedoniyalik Filipp bo'lgani mil.avv 321-yildan boshlab esa bu lavozimni Kipirlik Stasanor egallagani ma'lum bu vaqtda Nutakada Sisimtrga ta'luqli bo'lgan mahalliy sulolar vakillari yoki hatto o'z navbatida Aleksandr tomoniga o'tgan Sisimtrning o'zi hukmronlikni davom ettirgan bo'lishi mumkinligi ham istisno etib bo'lmaydi.¹ Bu juda qiziqarli faktir chunki avvallari muzey to'plamlaridan ma'lum bo'lgan Makedoniyalik Aleksandr dirahmalariga taqlidan O'rta Osiyoda zarb etilgan zarb etilgan muomila joyi aniqlandi. Bunday tangalarni zarb qilish fikrimizcha mil.avv IV asr oxirida qo'sh podsholik oralig'ida boshlangan va Nautakaning mil.avv 328-327 yilar qishini o'z armiyasi bilan boshdan oyoq shu yerda o'tkazgan Aleksandr tangalari bilan tanish bo'lgan mahalliy hukmdorlari amalga oshirilgan bo'lishi mumkin. Lekin E.V Zeymal ular mil.avv III-II asrlada zarb qilingan deb hisoblaydi. Bu yerda bunday taqlidiy tangalar hamda Salavkiy va Yunon-Baqtr tangalari topilgani Nautakada pul muomilasi ancha erta yuzaga kelganidan dalolat beradi.² Mil.avv IV asr oxiri III asr birinchi yarimida Nautaka-Kesh hududi Arrian guvohligida Parfiyaliklar, Baqtriyaliklar, So'g'dlar va girkanlar ustidan hukmronlik qilgan Salavka I davlati tarkibida kirgan. Mil.avv III asr o'rtasida aftidan Mil.avv II asr o'rtalarigacha Nautaka-Kesh hududi mil.avv 256 yoki 250 yillarda Baqtriyadagi Salavkiylar noibi Diodot tomonidan barpo etilgan Yunon-Baqtr podsholigi tarkibida kirgan.³ Bu haqda butun So'gd Yunon-Baqtr podsholiklari ma'lumotlari ham Kitob va Shahrisabzda nisbatan tez-tez topilib turadigan tangalaradan ham kelib chiqib fikr yuritish mumkin.

Ular orasida Diodot (Mil.avv 250-230 yillar), Antimax (mil.avv 190-180yillar) Evkradit (mil.avv 171-155 yillar) tangalari bor. Katta xan xonadoni tarixiga ko'ra mil.avv II asr oxiri-Mil.avv I asrda O'rta Osiyo ikki daryo oralig'ining deyarli butun hududning konfederativ Kang'uy davlati tarkibiga kirgan.

¹ Шахрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, Тошкент, Шарқ, 2002, 12-б

² Ртвеладзе Э.В. Монеты Кеша// история и культура южных районов средней Азии в древности и средневековья Т 1989.38-44с

³ Крашенинникова Н.И. Изучения цитадели Кеша// АО 1977.М.1978 527-с

Bu davlat tasarrufida besh kichik mulk bo'lgan ulardan biri- Suse yoki Suxe, olimlarning fikricha Kesh o'rnida bo'lgan va poytaxti va shunday nomlangan. Bu fikr ancha kech yaratilgan "Shi, Kyusha, Gilshuana (yani Kesh) kichik kanguy mulki Sxe shahrining qadimgi yerlari" ekanligi to'g'risida ma'lumotga asoslangan, Suse, Suxe mulki butun Janubiy So'g'd hududini o'z tarkibiga olgan.¹

M.E.Masson uning poytaxti Kitob o'rniga bo'lgan deb hisoblaydi. Numuzmatik ma'lumotlar Suse/Suxe hududi to'g'risidagi xulosani tasdiqlaydi. Bu kabi tangalar XIX asr oxiridayoq muzey to'plamlariga kelib tusha boshlagan, biroq S.K.Kabanov Naqshab va Kesh o'rtasida joylashgan Qizil bibidan olib brogan qazishmalar paytida bitta tanga topilganidan keyin ular muomilada bo'lgan joy aniqlangan. E.V Zeymal tangalarning ushbu guruhi mil.avv II-IV asrlarga oid deb hisoblab, shu asosda ular Janubiy So'g'da bo'lishi mumkin, degan xulosaga kelgan Shunga o'xshash kumush tanga bir necha yilga Nautaka-Kesh tarixiy viloyatida joylashgan To'rtko'ltepani qazishda topilgan. Yaqinda Talimarjon tumanida Ksenipa va Naqshabdan Kerki tumanidagi Amudaryo kechuviga qarab ketgan qadimga karvon yo'lida ketgan shunday tangalarning katta xazinasi topildi. Shu xazinadan oltmishdasi tadqiq qilindi. Shunday qilib o'z vazniga ko'ra obolga yaqin bo'lgan kumush tangalar ro'yhati Janubiy So'g'd hududida zarb qilinib muomilada bo'lganga o'xshaydi. Bu tangalarga qo'yilgan sana va hamda qo'yilgan o'ng va chap tomonida bitilgan So'g'dcha matn alohida qiziqish uyg'otadi. Chunki ularni to'g'ri o'qib, tushinish pul muomilasini tavsiflash uchungina emas, balki ushbu viloyat tarixi uchun ham muhim.²

Butun O'rta Osiyodagi kabi Sharqiy Qashqadaryoda ham jez kumush va tilla taqinchoqlar bila bir qatorda antik davrda ham yarim qimmatbaxo toshlardan ham va shishadan yasalgan zebu-ziynat buymlari ham keng tarqalgan. Ko'pincha pistaqi rangdagi rangdan moviy rangacha bo'lgan shishadan turli shakldagi munchoqlar yasalgan. Ularsiz dumaloq yoki yon tomoni taram-taram 0.8-1.1 sm hajmda bo'lgan. Yuqori saroy manzilgohida milodiy I asrlar qatlamidan qo'shaloq

¹ Крашенинникова Н.И. Раскопи в Китабском районе//АО 1983. М. 1985, 533-534 с.

² Лушпенко О.Н. К истории изучения поселений раннежелезного века долины Кашкадарьи // Древняя и средневековая археология Средней Азии Т., Фан 1990.24-с.

shisha munchoq(1.8 sm) topilgan. Shisha qatlamlari orasida zar qog'oz qo'yilgan. Shimoliy Qora dengiz yunon mustamlaka shaharlari ustaxonalari shunaqa munchoq tayyorlashda dong taratgan edi. Bunday zar qog'ozli taqinchoqlar Volgabo'yi va Shimoliy Qozog'izstoning shunday zebu-ziynat keng tarqalgan, Sarmat qabilalari vositachiligida Buyuk Ipak yo'li hududiy tarmog'i orqali Xorazmda keltirilgan, so'ng O'rta Osiyoning markaziy hududlariga yoyilgan. Janubiy So'g'dning Sharqiy qismidagi antik manzilgohlaridan metall buyumlar juda ham kam topilgan.¹

Shunday bo'lsada O'rta Osiyoda yaxlit temir buyumlaridan biri dastavval Sharqiy Qashqadaryoda mil.avv. VIII-VII asrlarga oid Daratepa manzilgohi tuproq qatlamlaridan topilgan. Podoyotoqtepa shahrining ilk ellin davri qatlamlaridan (mil.avv III asr) bir bo'lak mis hamda temirdan yasalgan yarim dumaloq shakldagi parcha topilgan. Bu ehtimol tugmacha yoki qo'ng'iroqcha parchasi bo'lishi mumkin. Sag'irtepa (Qorabog' qishlog'i yaqinida) manzilgohida topilgan temir tosh qonli mil.avv I asrga ta'luqlidir. Sho'robsoyning quyi oqimida joylashgan Nomsiztepa toshqol bo'lagi tosh sonidan va zang izlari qolgan bilaklarning topilishi Qashqadaryo vohasining sharqiy qismida so'nggi antik davrda ham mahalliy metalga ishlov berish rivojlanayotganligidan guvohlik beradi. Mahalliy metallurgiya ravnaq topishi asosan ilk o'rta asrlarga to'g'ri kelsa ham, aftidan antik davrdayoq ko'plab temir rudasi konlaridan, shuningdek kumush konlaridan ham ruda qazib olingan.² Arxeologik topilmalar moddiy madaniyat rivojlanishi bilan bog'liq masalalarni yaratilishigina emas balki Sharqiy Qashqadaryo aholisi diniy qarashlarining turli jihatlarni qayta tiklash imkonini ham beradi.

Ular butun antik davr davomida Shariqiy Qashqadaryo Zardushtiylik markazlaridan biri bo'lganligini ko'rsatadi. O'tmish davrlar materiallari buni ko'rsatib turibdi.Olovga topinish Zardushtiylik bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Chunonchi ilk antik davrdagi Podayoqtepa Shahridagi o'ralardan birida "Muqaddas kulni ko'mish" marosimi izi aniqlandi ko'p miqdordagi kul shaharda otashkasidan shu kul chiqqan antik davr ibodat majuoti mavjud bo'lganligidan

¹ Лунина.С.Б Статуэка лютнистики из Кашкадарьинского оазиса // ОНУ,1983 N.9 42-с

² Крашенинникова Н.И. Прошлое Китабе. // Вехи времен. Т., 1989.30-с.

dalolar beradi. Kul saqlanadigan bunday yirik joylar jez-ilk temir asri davridan buyon, Jarquton, To'g'aloq 21, Pishaktepa, Ko'ktepa va boshqa joylardagi ibodatxonalar qazilganda ma'lum bo'lgandi. Podayoqtepada o'ra tubiga g'ayri oddiy shakldagi uchta butun idish maxsus joylashtirilgan. Ularning ikkitasi qo'lda yasalgan so'nggi jez davri Baqtr-Marg'iyona arxeologik majmuadagi charx qoliplarida yasalgan idishlariga shaklan juda yaqin. Podayotepa idishlarni tayyorlash texnologiyasi hamda oqimtir rangdagi suyuqlik ehtimol xoama qoldig'i mavjudligi ular ibodat uchun mo'ljallanganligini ko'rsatadi. Aftidan bular zardushtiylikka xos bo'lgan olovga xos bo'lgan olov va suvga topinishning o'zaro bog'liqligining dalili bo'lsa kerak. Jez davri, Ilk temir asri va ilk ellin davrida Janubiy So'g'dning sharqiy qismida hukm surgan dinlarning vorisiyligini Podatotepaning yuqori qatlamlaridan mayda tosh to'shalgan maxsus yo'lakdan borilgan, to'g'ri burchakli paxsadan kursi shaklida yasalgan o'choq ham tasdiqlaydi.¹

Ellinlashgan Old Osiyoning madaniy turtkisi ta'siri ostida mil.avv. I asrda O'rta Osiyo aholisi e'tiqodida yangi elementlar paydo bo'ldi. Ular qadimgi mahalliy diniy qarashlar bilan qorishib tadqiqotchilar tomonidan ajratib ko'rsatiladigan "O'rta Osiyo Zardushtiylikning" o'ziga xos tomonlarning belgilarni ochib berdi. Pishirilgan sopol haykalchalar- terrakotalar odatda ibodatxonalardan joy olgan ma'budlar haykallari nusxasidir. Ular maxsus qoliplarda tayyorlangan so'ng usta ularni pichoq bolan qirib to'g'irlagan odatda qizil yoki jigarrang angopb bilan pardoz bergan va pishrgan. Haykallarning bo'yi 7 sm va 15sm gacha.

Xronologik jihatdan avval yasalgan haykallar Kitobdan topilgan. Janubiy So'g'dning sharqiy qismida ona ma'buda, ud chaluvchi ayollar va qandatdir mahalliy ilohlarning haykallari ham ko'p uchraydi. Kitobdan topilgan ona ma'budaning sopol hakalchalri o'tirgan holda tas'virlangan yalong'och ayolning mil.avv III asr yoki Yalong'och go'dakni ko'tarib olgan kiyingan ayolning qo'lda yasalgan hakalchalaridir. Saroytepa manzilgohidan o'ng yelkadan osilib tushgan

¹ Сагдуллаев.А.С Памятники материальной культуры Южного Согда эпохи ранней железа. Культура юга Узбекистана в древности и средневековье. Сборник научных трудов ТашГУ.Т 1987 12-с

maxsus lo'ngida yotgan yo'rgaklangan go'dakning boshini o'ng qo'li kafti bilan ushlab tik turgan yalang'och ayolning haykalchasi topilgan.¹ Saroytepadan topilgan sopol halkalcha juda realistik yasalgan. O'ng soni yonidan osilib turgan nafis gazlama burmalari ko'rinib turibdi. Gardanidagi hashamdor taqinchoq-jevak, haykal turgan maxsus do'nglik muhimi chap yelka tomon ko'targan qo'l ishorasi (Ko'rsatkich va o'rta barmog'i yuqori ko'tarilgan, qolganlari kaftiga bosilgan) haykalcha ibodat marosimiga mo'ljlanlaganligidan dalolat berdi. Ayol ta'sviri mutanosib detallar ustalik bilan, juda jonli berilgan, bu hol haykalchani ellin va hind bitta haykaltaroshligi (koroplastika) hamda haykaltaroshligining eng yaxshi namunalariga yaqinlashtiradi. Saroytepadan topilgan haykalcha O'rta Osiyodagi Ko'hna Marv antik Marg'iyona Antioxiyasi haykallariga o'xshahs bu hol mil.avv I asrlarda Parfiya, Shimoliy Baqtriya hamda So'g'dning siyosiy va madaniy aloqalari kuchaygani bilan bog'liq. Umuman Saroytepadan topilgan haykalchalar bir qator jihatlari hamda umuiy kompozitsiyasi bo'yicha o'sh paytdagi oykumena yer yuzasining odam yashayotgan qismining turli joylarida: Mermukiy (Shimoliy Qora dengiz bo'yi) Bengaliya (Hindiston) gacha bo'lgan hududlardagi haykallarga o'xshahs bo'lgan. Shunday tas'virlarni bo'lganligi sababli antik davrda So'g'd boshqa hududlar bilan madaniy aloqlar bilan yaxshi shakllangan.² Saroytepadan dastlab topilgan ud chaluvchi ayollar haykalchalari, Shimoliy Baqtriyadagi singari yarim haykal shaklida yasalgan. Ular mashxur Ayritom piramonlariga juda o'xshash va driadalar va Nabodot olami yarim mabudalari bilan bog'liq bo'lgan.³

Milodning dastlabki asrlarida qo'shni Oyoqchi vohasida ud chaluvchi ayollarning boshqa tipidagi haykallari bo'lgan. Oyoqchi daryoning o'rta va yuqori oqimidagi manzilgohlarida hashamdor kiyingan mashshoq ayollarning sopol haykalchalari topilgan, qabrlarning birida esa ud chaluvchi ayol haykalchasi mahalliy ona haykalchasi bilan birga uchragan. Kiyim detallari va zebu-ziynatlar ta'svirlanganlarning maqomi yuqoriligidan darak beradi. Sho'robsoy vohasi

¹ Крашенинникова Н.И. Прошлое Китабе. // Вехи времен. Т., 1989.30-с.

² Қадимги Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳаррир: А.С.Сагдуллаев.Т."Шарқ" 1998.70-б

³ Лунина.С.Б Статуэка лютнистики из Кашкадарьинского оазиса // ОНУ,1983 N.9 42-с

manzilgohlaridan topilgan hakalchalar yunoncha xitonga o'xshash plashga o'ralgan va gardaniga jevak osgan: Oyoqchi vohasidan topilgan haykalchalar esa hashamdor tikilgan halatda ta'svirlangan. Ud chaluvchi ma'budalarga uzoq vaqt davomoda topinib kelingani haqida Yakkabog' tumani Tezob qishlog'idagi ilk o'rta asrlar manzilgohidan topilgan haykalcha guvohlik beradi.¹

Sharqiy Qashqadaryoda ilohiylashtirilgan ajdodlarga sig'inish ham keng tarqalgan bo'lib, ular erkaklar haykallari hamda qo'lga yasalgan chavondozli chavondozsiz ot shakllaridan iborat topilmalardir. Kitobda va To'pchak qishlog'ida milodiy I-IV asrlar materiallari bilan birga uzun qalpoq yoki yo'l-yo'l bog'ichli ko'rinishdagi bosh kiyim kiygan ba'zan o'ng qulog'ida sirg'asi bo'lgan erkkaklar haykalchari ham topilgan. Tadqiqotchi olimlar fikricha ular mil.avv II milodiy IV asrlarga yasalgan deb xisoblanadi va Makedoniyalik Aleksandr ta'svirlariga borib taqalishi mumkin.² Boshqacha tipdagi haykalchalar topilgani ham qayd etilgan. Kitobdan ma'buda Afina bosh kiyimining mahalliy variant bo'lgan o'ziga xos bosh kiyimdan ishlangan sopol haykalchasi topilgan. Haykalcha qiyofasi Old Osiyo Afinasi- Allati timsoliga yoki yunonlar ma'budasi funksiyasiga yaqin qator vazifalari bo'lgan eroniylar ma'budasi Arshtatga o'xshaydi. Antik davrga oid Sopoltepa(Chiqo'rg'on suv ombori atrofi)dagi manzilgohidan topilgan Dionis va Satr ta'viri tushirilgan sopol taxtachada ham Janubiy So'g'd Sharqiy qismi mayda haykaltaroshligida ellin sa'natining ta'siri kuchli bo'lganligini ko'rsatadi.³

Buddizm bilan bog'liq ta'svirlarini ham haykalchaklarning alohida turi sifatida ajratish mumkin. Bir qator ma'lumotlar bu din antik davr oxirida, yoki ilk o'rta asrlarda Hisorning g'arbiy tarmoqlarida hamda O'rta Osiyoning markaziy hududlarida yoyilgani haqida gapirish imkonini berdi. Janubiy So'g'dning Sharqiy qismida topilgan sopol haykalchalar bundan dalolat beradi.¹ Sharqiy Qashqadaryoning antik obidalarida ko'pincha hayvonlar ta'sviri uchraydi ular

¹ Шахрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, Тошкент, Шарк, 2002, 83-б

² Кабанов.С.К. Керамический комплекс из наслоений древнего городища в Китабе// ИМКУ.Т. 1962 47-48с.

³ Абдуллаев.К.,Раджабов.С. Теракотовая плитка с изображением Диониса и сатира из Кашкадарьи //ИМКУ.Самарканд, 2000 111-114 с

¹ Ставиский.Б.Я Судьбы буддизма в Средней Азии. М.,1998. 143-144 с

O'rta Osiyoning barcha mintaqalaridagi kabi ko'pincha chavondozlik va chavondozsiz otlar ta'sviridir. Ular odamlar ta'svirlaridan farqli ravishda, qo'lda yasalgan va sxematik shaklga ega Kitobdan qo'lga yasalgan haykalchalar topilgan ularning birida kamondan ortiga qarab o'q otayotgan chavondoz ta'svirlangan. Qazish jarayonida yana qanotli ot-pegas va yarim ayol ot kentavr haykalchasi ham topilgan.²

Mil.avv va milodiy I asrlarda Baqtriya, So'g'd, Marg'iyona, Xorazm, Shimoliy Qora dendiz bo'yidan topilgan chavondozli va chavondozsiz otlar haykallari ta'sirida yaratilgan. Saroytepa manzilgohidan tuyaning realistik ta'svirlangan sopol kallasi topilgan. Bu O'rta Osiyodan Baqtriya tuyasi dastlab xonakilashtirilgan ta'sviriga oiddir.³

² Крашенинникова.Н.И Два комплекса керамики. 90-91 с рис.26

³ Крашенинникова Н.И. Прошлое Китабе. // Вехи времен. Т., 1989.30-с.

II Bob Kesh vohasining O'rta asrlar davri arxeologik yodgorliklari.

II.1 Ilk o'rta asrlar arxeologik yodgorliklari.

O'zbekistonning qadimiy shaharlari uzoq vaqtlardan beri sharqshunoslar, arxeologlar, etnograflar diqqatini tortib keladi. Ularning bir qismi hozirda yemirilgan shahar xarobalari-arxeologik yodgorliklar(tepa) shklida saqlanib qolgan bo'lib, ushbu xarobalar ostida ko'hna turar joylar, ibodatxonalar saroylar qoldiqlari yashiringan. Ikkinchi bir qismi esa o'z taraqqiyotida rivojlanish va tushkunlik davrlarni boshdan kechirib hozirgacha yetib kelgan hamda me'morlarning o'lmas asarlari saqlanib qolgan holda uzoq o'tmish voqealari borasida hikoya qiladi.

Nautaka-Kesh vohasi ham shunday hududlar sirasiga kiradi. Uning o'rganilish tarixi, yozma manbalar, va numuzmatik ma'lumotlar sharhi V.V Bartold, M.E Masson, P.A Pugachenkova, O.I Simirnova, S.K. Kabanov va Z.I. Usmonovalar asarlarida yetarli darajada o'z ifodasini topgan. Tadqiqotchilar fikricha ilk o'rta asrlarga oid Kesh Oqsuvning o'ng sohilida hozirgi Kitob o'rnida shakllangan.¹

Ilk o'rta asrlarda markaziy shahar hayoti Qalandartepadan g'arbga ko'chadi. Bu davrda Kesh hukmdorlarning qarorgohi "Qo'rg'on" nomi bilan mashhur qa'lada joylashgan. Ushbu qa'laning qoldiqlari hozirda mavjud.² O'rta asr yozma manbalarida Kesh deb atalgan viloyat hududi Zarafshon tog' tizmasining janubiy yon bag'laridan boshlab, hozirgi Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', G'uzor va O'radaryo vohasi yerlarni o'z ichiga olganligi qayd etilgan. Uning markazi Shahrisabz-Kitob vohasida rivoj topgan. I.Markvartning fikriga ko'ra ilk o'rta asrlar Keshi VI asrda vujudga kelgan, yani VI-VII asarlasrdan boshlab bu shahar Kesh deb atala boshlangan.³ Kesh viloyatining V-VIII asrlardagfi moddiy va ba'diiy merosi O'rta Osiyoning boshqa tarixiy-madaniy viloyatlari hamda qo'shni

¹ Крашенинникова.Н.И. Работы в Китабе // АО 1982-М. 1984 474-с

² Кabanov.С.К Археологические разведки в Шахрисабзком оазисе.// Известия АНУЗ. 1951. 188 с

³ Киплик. Д.И Техника живописи.М.,1950. 322-с

mamlakatlar bilan o'zaro madaniy munosabatlar g'oyat murakkab jarayonlarni aks ettiruvchi me'moriy yodgorliklarda mujassamlashgan.

Ular orasida qadimgi shaharlar va manzilgohlar, alohida joylashgan qasrlar, ibodatxonalr, sajdagohlar, devoriy rasmlar, sopol buyumlar, zebu-ziynatv buymlari, terakota plastinalar, ostodonlar bor. Bu yodgorliklar orasida turli tipdagi qadimgi shaharlar va manzilgohlar alohida o'rin tutadi. Balandtepa, Qalqontepa, Chechaktepa Kitob va Shaxrsabzning ilk o'rta asrlar qatlamlarida olib borilgan axeologik qazishmalar va natijasida ilk o'rta asrlarda Kesh hayotining turli jihatlar haqida hukm yuritishni imkonini beruvchi bebaho material qo'lga kiritildi, obidalar topagrafiyasi mavjudligi esa ularning joylashuv xususiyatlari haqida hamda qonuniyatlarini belgilash imkoniyatni yaratdi.¹

V-VII asrlarda Qashqadaryo ko'chmanchi qabilalar tarqalgan o'lka bo'lib, oldin Eftalitlar davlatining, keyinroq esa Turk xoqonligining tarkibiga kiradi. VI-VII asrlarda viloyat markazini qadimgi Kesh shahri bilan bog'lovchi fikrlar bor. Arab muallifi Yoqubiyning ma'lumot berishicha Kesh ma'lum bir muddat butun So'g'dning poytaxtiga aylandi. Kesh shahri VII asrda yuksak darajada rivojlanib, Xitoy bilan siyosiy-iqtisodiy va madaniy aloqalarni kuchaytiradi. Buyuk Ipak yo'li orqali Kesh savdogarlari uzoq Sharq shaharlarigacha yetib borganlar. Kesh o'z tanga pulini zarb qilgan.² Kesh ilk o'rta asrlarda ham So'g'd konfederatsiyasining mahalliy hokimlari orasida yetakchi mavqe uchun kurashgan. VII asr o'rtalariga qadar hatto So'g'dning ma'muriy-siyosiy markazi rolini o'tagan. Shishpir ixshidligi davri buning yaqqol misolidir faqat Varuxmanning ixshidligi davridagina markaziy hokimyat Samarqandga qaror topdi. Musulmon yozma manbalarida Kesh nomi dastavval VII asr oxiri VIII asr boshlarida qo'llanilgan. Ularda shaharning uch xil: Kash, Kish va Kesh shaklida yozilishi uchraydi. Biroq ulardan qaysi biri nisbatan to'g'riroq ekanligi masalasi noaniqligicha qolmoqda. Tangalarda So'g'dcha matnlarda bu so'z doim unlisiz KS shaklida beriladi.³

¹ Лунина.С.Б Статуэка лютнистики из Кашкадарьинского оазиса // ОНУ,1983 N.9 42-с

² Бартольд.В.В Кеш, Соч Т.III М.1965 460-с

³ Бичурин.Н.Я Собрания сведений о народах,обитавших в Средней Азии в древние времена.М-Л,1950 316-с

Xususan Keshning ilk o'rta asrlar(V-VIII asrlar) oid obidalari topografiyasi ijtimoiy qaramlikning tizmi inkosidir.

Kesh arxeologik-topografik ekispeditsiyasi(KATE) ma'lumotlariga ko'ra xar bir mulk maydoni ming gektardan besh ming gektargacha bo'lgan, sug'oriladigan maydonni tashkil qilgan. O'rta Osiyo sharotida sug'orish tarixi ham yerni uch bosqichli o'zlashtirish sxemasi bilan belgilanadi. Ilk o'rta asrlar davrida suvdan foydalanishning uchala usuli bir vaqtda ishga solingan: 1) Adog'iga yetib borayotgan kichik tog' jilg'alari handa soylar etaklaridagi quduq va koriz usuli 2) Tog' yon bag'rlarida suvni su'niy usul bilan to'plab, katta bo'lmagan ariqlar va soylardan mavsumiy sug'orishda foydalanish usuli. 3) Tekislikning keng va unumdor qismini doimiy sug'orish uchun suv to'lib oqadigan daryolarda katta anhorlar va alohida magistiral kanallar chiqarish usuli.¹ Mintaqa arxeologik obektlarning 80% ni ilk o'ra asrlar yodgorliklari, tashkil qiladi, ularning deyarli 3/1 ko'p qatlamli bu obektlar tashqi topografik alomatlariga ko'ra quydagi ko'rinishlari mavjud. 1) Ko'hna shaharlar bu tipga iste'hsom alomatlariga hamda ikki uch qismga ega bo'lgan bir necha yirik(1.5-4 gektarga yaqin) manzilgohlar kiradi. 2) Qo'rg'onlar: ular ikki tipda mustahkamlangan va mustahkamlanmagan bo'lgan, Mustahkamlangan qo'rg'onlar- bunday qo'rg'onlar tarixi odatda to'gri burchakli va relefiga ko'ra ikki qavatli bo'ldi. Bunday obektlarning ko'pchiligi uncha katta bo'lmagan tepalik va unga yondosh hamda undan pastroq do'ngliklardan iborat bo'ldi. Eng baland qismi "Diz", "Ko'shk" ning shinakli devori, xandaq kirish joyi bo'lib, u ham manzilgohga nisbatan markazga burchakda yoki uning tomonlaridan birida odatda, mulkning tashqi chegarasida tomon yo'nalgan holda joylashgan bo'ladi. Mustahkamlanmagan qo'rg'onlar – ularga bir qavatli, ko'pincha maydoni 0.02 dan-5 gektargacha iborat do'ngliklar kiradi. Ular dehqonlarning alohida turar joylari vayronasidir.² KATE ning ko'p yillik tadqiqotlari turli tipdagi manzilgohlarining geografik vaziyat xo'jalik faoliyati va tabiiy hamda su'niy suv manbalaridan kelib chiqib joylashuvining konseptual

¹ Шахрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, Тошкент, Шарқ, 2002, 85-б

² Сағудуллаев А.С Древние поселения Кашкадары СаУ. N 7. 1979 30-с

sxemasini tuzishda va tushinishda hatto feodal qaramlikning turli tizmidagi mulklar chegarasini aniqlashda ko'maklashdi.

Chunonchi qal'alar, odatda, obi hayot manbaini nazorat qilish uchun asosiy kanallar boshida qurilgan. Qa'la atrofida yoki uning qatorida shahar vujudga kelgan.¹ Keshning memoriy bezagi hamda rasmlari Chechaktepa qal'asi topilmalari bo'yicha yaxshi o'rganilgan. Bu yerda monumental binolarning ichini me'moriy bezash usullari majmui tadqiq qilindi. Bular ganch naqsh detallari (akkantlar, andoza, g'isht) suvoqqa bosib tushirilgan devorda ketma-ket joylashgan doiralarning o'yma tasviri: birinchi va ikkinchi qurilish davrlarida devorlarni bezagan rasmlar, ikkinchi qurilish davri mehrob taxmonlarining ikki yonini bezab turgan naqshli ustunlar: tomonini ko'tarib turgan olti ustunning poy ustuni qoldiqlardan iborat. Topilgan rasm qoldiqlari shu qadar parchaki, ular bo'yicha tasvir syujeti hususiyati haqida fikr yuritib bo'lmaydi. Biroq rasmlar syujetli bo'gani shubhasiz, chunki kiyim bezaklari inson tanasi qismlari va boshqalar tasviri bo'lgan parchalar bu haqda dalolat beradi. Birinchi qurilish davrida aftidan butun devor buzulgandan so'ng bu rasm qoldiqlarin ikkinchi davrda qurilgan supa orasiga tushib qolgan. Supadan ajratib olingan parchalardagi ranglar xilma-xil bo'lib chiqdi. Unda qizil rang bilan sariq rang, qora bilan qizil rang, pushti bilan olcha rang, och moviy bo'g'iq moviy ranglar uyg'unlashgan. Yashil rang umuman yo'q, ranglar asosan ochiq va yorqin berilgan. Rasm parchalari qora rangda nafis tasvirlangan, Burma bo'lib, tushib turgan kiyim qismlarini aniqlash mumkin.² Matoga tushirilgan bu ranglar haqida fikr yuritar ekanmiz ehtimol doiralar, yo'l-yo'l chiziqlar tarzida turli geometrik shakllar bilan uyg'unlashib ketgan naqshlar berilgan bo'lsa kerak. Sariq va qora chiziq bilan tilla ziynatlar, ehtimol ot egar-jabduq elementlari berilgan. Tillaning bunday ta'sviri Afrasiyob, Panjikent, Bolalikrepadagi devoriy rasmlarda uchratish mumkin. Topilgan barcha parchalarda inson afti tasviri bo'lgan. Bu jangchi yoki birorta asfsonaviy qahramon bo'lishi mumkin. Uning yuzi g'azabnok, ko'zlari kosasidan chiqay deb turibdi, burni

¹ Массон.М.Е Столице города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен Т.Фан 1973.36-с.

² Кабанов С.К Нахшеб на рубеже древности и Средневековья (III-VIII) Т.1977.120-с

besunaqay, qoshlari darg'azab kerilgan, ingichka qora mo'lovi osilib turgan. Barcha tasvirlar butunlay qizg'ish-sariq rangda atrofida yorug'liksiz berilgan.³

Och moviy fondan sariq rang bilan uslublashtirib berilgan o'simlik ta'sviri parchalari rasmni quyi tomonidan chegaralanib turgan naqshinkor belbog'ning bir qismi bo'lishi mumkin. Shunday uslubni Varaxsha, Panjikent rasmlarida ham uchratish mumkin. Hayvon tirnog'ini eslatuvchi parcha qiziqish uyg'otadi, lekin panja ta'sviri saqlanmagan.¹ Supa orasidan topilgan birinchi davrga oid parchalarni ranglar uyg'unligiga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh qizil, sariq, va qora rangli naqshlar chizilgan suvoq parchalari. Ikkinchi guruhga ko'k qizil va sariq ranglar uyg'unlashgan. Uchinchi guruh qizil, qora va oq ranglardan iborat.² Pushti, ko'k va to'q qizil-binafsha rangli parchalarni alohida ajratib ko'rsatish zarur. Bunday parchalar ko'p emas. Pushti rang juda zaif bo'lib, oq ranga deyarli o'tib boradi. Bu rasmlarning hammasi yodgorlikning birinchi bor vayron qilinganda, taxminan 654-yilda, Arablarning birinchi abosqichi davrida barbod bo'lgan. Imorat tamirlanib yangi mehrob qilingach, pog'onali yo'lak devori, mehrob tomoni, janub tomondagi devorning bir qismi rasm bilan bezatilgan.³ Ikkinchi davr rasmlari parchasi devorga buzilmay saqlangan. Taxmonning ikki yonidan bezak ustunalar(poy ustuni-moviy rangda, chambarak-qizil rangda, tanasi va qoshi oq rangda) bo'yalgan. Ikkinchi davr naqshlari o'simlik simon naqshlari tarizda chizilgan. Chunonchi daxlizning shimoliy g'arbiy devori sariq rangga bo'yalib, qora chiziq bilan o'ralgan bundan qora rasmlar saqlangan. Rasm qora suvoqsiz sof tuproqli suvoqqa chizilgan. Mehrob taxmoning bo'rtib chiqqan qismlariga pushti rang xolda bo'g'iq moviy rang doiralar chizilgan, to'rt doira bir birining ichiga joylashtirilgan, markazida nuqtasi bor. Ikkinchi va uchinchi doiralar oralig'ida o'nta nuqta qo'yilgan. Doiralardan bir maromda xilpillab turgan tasmalar tarqalgan. Bu qandaydir shamsiy alomat bo'lishi ham mumkin. Janubiy devorda gul, novda, yaproqlar uzil –yuluq ta'svirlangan. Rasm

³ Альбаум Л.И Живопись Афроснаба. Т,1975 рангли жадвал

¹ Альбаум Л.И. Балалыктепе.Т, 1960 172-с

² Шишкин.В.А Вараша. Скульптура и живопись древнего Пенджикента М.1955. 162-с

³ Киплик. Д.И Техника живописи.М.,1950. 322-с

quruq suvoq ustidan boshdan oyoq madanli bo'yoqda chizilgan, shuning uchun ham rangdor qatlam g'oyat yupqa va nozik chiqqan.⁴

Eng qadimgi rasm oddiy materiallardan ishlangan. Bo'yoq sifatida turli madanli bo'yovchi vositalar, o'simliklar shirasidan foydalanilgan. O'simliklardan va hayvonlardan tayyorlangan yelim, oxak va mum bog'lovchi matreal bo'lib xizmat qilgan.¹

Chechaktepadagi rasmlar aftidan quydagi tartibga foydalanilganga o'xshaydi: loy, suvoq ustidan oq suvoq(albastr) berilgach, rassom moy qalam biln qora rangda ta'svir qon turini chizib olgan. So'ng rasm zarur rangda bo'yalgan va ustidan ta'svir kon turi chizib olgan va ustidan chizilgan. Panjikent, Varaxsha, Bolaliktepadagi rasmlar shu tarzda chizilgan. Ta'svir atrofiga doimo qara yoki qizil chiziq tortilgan. Xomaki bo'yoq doim ham berilavermagan. Yo'lakdagi rasmlar bevosita soz tuproqli suvoq ustiga chizilgan imoratning bu qismi ikkinchi darajali bo'lgani hamda rasm chizishda o'ta puxtalikni talab etgani uchun shunday qilingan bo'lishi mumkin. Ranglar uyg'unligi yozuv tarsi, kon turi aniq va nozikligiga ko'ra Chechaktepa rasmlari Panjikent va Varaxsha devoriy rasmlariga yaqin. Ularni Bolaliktepa rasmlari bilan qiyoslansa, nisbatan nafis ishlangani ma'lum bo'ladi Bolaliktepa rasmlaridan farqli ravshda Chechaktepa rasmlari atrofi chiziq bilan qayta o'ralgan.²

L.I Albaum ta'kidlashicha, Bolaliktepa rasmlari(bu yrfdsa faqat qo'l panjalri, yuz va kiymning ayrim detallari atrofi chiziq bilan ajratilgan) "Kushon rasmlari bilan Varaxsha, Panjikent va Ajinatepa yodgorliklari o'rtasida oraliq bo'g'in" bo'lgan.³ Shunday qilib imorat qurilgan vaqt VI asr-VII asar boshlariga to'g'ri kelishini aniqlash imkonini beruvchi numizmatik topilmalar bo'lganida ham, rasmlar qoldiqlarening qiyosiy tahlili asosida o'sha sanani ko'rsatish mumkin. Chunki uslubiga ko'ra hukm chiqarilsa Chechaktepaning birinchi qurilish davridagi rasmlari V-VII asrlarda oid deb xisoblanadigan Bolaliktepa rasmlaridan

⁴ Костров П.И Техника живописи древнего Пенджикента. Живопись древнего Пенджикента.М.,1954 162-с

¹ Киплик. Д.И Техника живописи.М.,1950. 322-с

² Костров П.И Техника живописи древнего Пенджикента. Живопись древнего Пенджикента.М.,1954 162-с

³ Альбаум Л.И. Балалыктепе.Т, 1960 172-с

keyin yuzaga kelgan. Ilk o'rta asrlardagi O'rta Osiyo monumental ta'sviriy sa'nati bizga So'g'd, Xorazm va Buxoro obidalari bo'yicha ma'lum.

V-VIII asrlardagi O'rta Osiyo san'ati antik davr diniy g'oyalarni yangi, yarim dunyoviy tarzda moslashtiradi. V-VII asrlar rasmlarida "epik maishiy janr" sahnalari ustun turgan. Badiiylik ta'sviriy san'atning bosh mazmunini tashkil etgan Varaxsha, Panjikent va Samarqand decoriy rasmlarida qahramonlik eposi va rivoyatlar deyarli asosiy o'rinda turgan. So'g'd rasmlari rassomligida sharqona ko'pranglilik, bezakdorlik, detallarning nafis chizilishi, shakllarning nozik ta'svirlashga intilish hos bo'lgan. Biroq (Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda g'oyat keng tarqalgan) monumental rassomlik Chechaktepada bino ichini bezashda foydalanilgan yagona usul emas.¹ Chechaktepada ikki xil akant ta'svirlangan. Birinchi xili-quruq va to'g'ri shakldagi novdalar, biroz cho'ziq barglardan iborat. Ikkinchi xili- bir tekis egilgan chiziqlar berilgan. Lekin ular juda soddalashtirilgan, burglar sxematik madellashtirish vositasida uslublashtirilgan. Akkantning me'moriy ta'sviri butun O'rta Osiyoda antik davrdan boshlab ilk o'rta asrlargacha keng tarqalgan edi. U Varaxshadagi kabi terrakotadan ham, tosh yoki o'ymakori albastrdan ham tayyorlangan. Turli obidalarda uchraydigan akkant shakllari bir biridan keskin farq qiladi. V-VII asrlarda akkant ta'svirida hajmdorlik yo'qola borib, u yuzaga o'ymakorlik elementiga aylandi.² Devorni bezash uslubi navbatdagisi nam suvoqqa qandaydir asbob yordamida hosil qilingan bo'rtmalardir. Xonalardan birining g'arbiy devorida to'rt doira bir birining ichida ta'virlangan. Ular qator joylashgan, ayrimlari uzoq aylana ko'rinishdadir. Bunday naqsh devorlari tepasimon ko'rinish aks etadigan, bir- biridan katta ravoq ko'rinishdagi rasmlar qatori bilan bezatilgan. Panjikent zallarini yodga soladi. Jumaloqtepada esa gorizantal chiziqlar bilan ajratilgan rovoqlar bilan qoplangan devorlariga misol bo'la oladi. Varaxshada o'sha texnika bo'yicha ichida archaga o'xshahs narsa ta'svirlangan to'g'riburchakli to'rtburchak ko'rinishdagi soda naqsh uchraydi.³

¹ Шахрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, Тошкент, Шарк, 2002, 87-б

² Ворорина В.Л. Архитектурные памятники Древнего Пенджикента. //Труды ТАСЭ, т.3, М.-Л., 1953. 130-с

³ Лунина.С.Б. Статуэка лютнистики из Кашкадарьинского оазиса // ОНУ, 1983 N.9 43-с

Me'moriy detallardan xonadagi mehrob taxmonnig ikki yonidagi bezak ustunchalar katta qiziqish uyg'otadi.

Ular moviy rangda bo'yalgan, to'rt qirrali kesik piramida shaklida bo'lib, yuqorisi ingichkalashib ketgan, ustiga qizilga bo'yalgan chambarak qo'yilgan. So'ng ustinning yuqori tomon ingichkalashib boruvchi oqqa bo'yalgan tanasi davom etgan. Ustun boshida qoshi bo'yalgan. Undan faqat oqqa bo'yalgan shakldor andoza g'isht saqlanib qolgan. Panjikentda yon tomonlarida ustunchalari bo'lgan ravoq ko'rinishidagi toshsimon inshootlar bo'lgan.¹

V.I.Voronina shundan kelib chiqib bezakni rekonstruksiya qilgan. Chechaktepa ustunlari ulardan kam farq vqiladi. Oltita ustun izi qayd etilgan. Ulardan ikkitasi markazdagi mehrob tomonidan taxminan 80 sm masofada joylashgan. Ularning poy ustuni to'g'riburchakli g'ishtlardan qilingan bo'lsa kerak. Sahndan bu g'ishtlari qoldiqlari topilgan ushbu markaziy ustunlar, ehtimol bezak ustunlar ko'rinishda bo'lgandir. Yiqilgan ustun iziga qaraganda u to'rt qirrali bo'lganga o'xshaydi. Sharqiy devor yonidagi ustunni tozalash paytida butkul vayron bo'lgan ikki ustun izi aniqlashga erishildi ularni shakllari uyimlarda saqlanib qolgan dumaloq chuqurlik bo'yicha aniqlandi. Ustun aftidan, yog'ochdan bo'lganga uchraydi bu imoratda yog'och "armatura" sifatida xizmat qilgan, loy suvoq hisobiga ustunlar bir xil yo'g'onlik kasb etgan.² Birinchi qurilish davri eshigi o'rni yonidan eshik o'rni ravog'i bezagini ko'tarib turgan nimustun izi topildi. Bular ko'proq mehrob tomoni yonidagi ustun bo'lganga o'xshaydi. Ularning poy ustuni kesik piramida yoki pog'onoli asos hamda yapasqi chambarak shardan iborat bo'lgan. Chambarakning yuqori chekkasi bo'ylab ustun tanasi turgan gorizontal maydonchani atrofni o'rab olgan kichikroq tokcha ketgan. Kesik piramida chambarak o'rnatiladigan kvadrat asosdan hosil qilingan. Bu shakl O'rta Osiyoda ustunlar poy ustunini rivojlanishiga asos bo'lgan. Unga yangi komponentlar kiritilgan, natijada VIII asrga qadar u o'z qiyofasini o'zgartirib

¹ Белецкий А.М Раскопки на городище древнего Пенджикента в 1955.г Душанбе. 1964.Т.13 50-с

² Шахрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, Тошкент, Шарк, 2002, 87-б

turgan, ayrim hollarda asos balandlashgan pog'onali qilingan. Boshqa hollarda esa kesik piramida pog'onali asosga o'rnatilgan.³

Birinchi qurilish davrida mehrob joylashgan sharqiy devordan tashqari, xona devorlari bo'ylab supa qilingan. Supa ham, imorat devori singari paxsadan qilingan. Bu O'rta Osiyo me'morchiligi uchun tipik holdir. Chechaktepa memoriy bezagi va badiiy bezagi tahlili yodgorlikning ushbu qismidan ibodatxona sifatida foydalanish mo'ljallanganligini ko'rsatadi, turli davrlarda foydalanilgan ikki mehrob bo'lganligi darak beradi. Ular butunlay farqli ravishda joylashgan: birinchi qurilish davri mehrobi shimoliy g'arbga, ikkinchisi janubiy-sharqqa yo'naltirilib qurilgan. Bu yerda qanday dinga etiqod qilinganligi haqida hozircha biror aniq gap aytish qiyin.¹

S.K.Kabanov Qashqadaryoning sharqiy va g'arbiy hududlarida zardushtiylilik Naxshabda ko'proq olovga, Keshda esa suvga topinish bilan ajralib turgan, degan tahmini aytgan. Bu fikr to'la ta'sdiqlanmoqda.² Kesh vohasi haqida arab mualliflari eng avvalo, shaharning topografiyasi va tarixiga, shuningdek asosiy darvozalarning soni va joylashuviga, sug'orish manbalari-daryolar, kanallar, yerlarning hosildorligi, yirik aholi manzilgohlari oralig'idagi masofalarda e'tibor qaratishadi. Jumladan Kesh-Nasaf, Kesh-G'uzor-Temiz, Nasaf, Buxoro va boshqa yo'nalishlardagi karvon yo'llarining tafsilotlari keltiriladi. Kesh viloyati Zarafshon tog'laridan G'uzordaryogacha bo'lgan yerlarni qamrab olgan bo'lib, 16 ta tuman-rustoqlari birlashtirilgan. Ibn Xahqal va al-Maqdisiy tomonidan keltiriladigan Keshning ta'rifi eski Kesh(Kitob) va yangi Kesh(Shahrisabz) ga to'g'ri keladi. Eski Keshning ichki madinasi va ko'handizi bu davrda tashlandiq holga kelib, undan 7 km janub tomonda tashqi madina (Yangi Kesh) ravnaq topayotgan bo'lib, uning ikkita darvozasi ular orqali o'tgan markaziy ko'chasi mavjud bo'lgan. Eski Kesh hududiga jome masjid zindon va bir qancha bozorlar joylashgan. Arab sayyohlari Kesh yerlarining serhosilligini, aholisi esa dehqonchilik va chorvachilik

³ Бичурин.Н.Я Собрания сведений о народах,обитавших в Средней Азии в древние времена.М-Л.,1950 316-с

¹ Қадимги Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳаррир: А.С.Сағдуллаев.Т."Шарк" 1998.74-б

² Кабанов С.К. В оазисах и степях Кеша и Нахшаба Т., "Узбекистон" , 1988, 37-с.

bilan shug'ullanishi haqida yozilgan. Shaharning gullab yashnagan davri VIII asrning birinchi yariga to'g'ri kelib, bu davrda Kesh So'g'dning((Qashqadaryo va Zarafshon vodiylari) poytaxtiga aylandi.

Yozma manbalar numizmatik mamnbalarda ushbu davrda keshni boshqargan hukmdorlar Duchje, Shishpir, Axurpat to'g'risida ma'lumot beriladi.¹

Arab mualliflari VIII asr oxirlariga kelib Keshning keskin tushkunlikka uchrashi sabablariga to'xtalishmaydiki, buni eng avvalo, Muqanna isyoni eslatmaslikka harakat qilganlik bilan izohlash mumkin. 751-yilda Kesh hukmdori Al-Ixshid Xuroson noibi Abu-Muslim buyurug'i bilan qatil etilgan bo'lib, At-Tabaryning guvohlik berishicha, bu vaqtda arablar Keshda katta o'ljani qo'lga kiritganlar Xaslifalik noiblarining So'g'da amalga oshirilgan va ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan siyosati bir vaqtlar kuchli bo'lgan Keshning ijtimoiy-iqtisodiy ahamyatini tubadaan yemirishga, shu bilan isyonchi shahar va uning musatahkam mudofaasini vayron qilishga qaratilgan edi. Shahrisabz tarixiga oid birqancha asarlarida turli xil ma'lumotlar aks etgan. Bu asarlarda Kesh viloyatining tabiiy geografi o'rne, tabiati, aholisi shaharlari haqida bir qancha qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. 704- yil voqealari bayonida esa, Kesh va Samarqand hukmdorlari arablarga qarshi birgalikda jang qilib g'alaba qozongaliklari so'ngra arablarga qarshi Kesh, Nasaf va Buxoro qo'shinlari birgalashganliklari haqida yozilgan. Arablar 709-710 yillari Keshni bosib oladilar.² Kesh Kitob o'rniga qolganmi yoki Shahrisabz o'rniga ko'chib bo'lganmi degan savol bugungi kungacha noaniqligicha qolib kelmoqda. Garchi M.E Masson ilk o'rta asrlarda Kitob shaharida aholi nisbatan zich joylashganligiga asoslanib Kesh Kitob o'rnida bo'lgan, deb qat'iy aytgan bo'lsada lekin buni hali hanuz isbotlangani yo'q. Vaholanki M.E Masson fikricha Shahrisabzga aholi zich joylashganligi izlari bir nechta ifodasiz sopol parchalari va shu davrdagi bir necha Shahrisabz tangalarni etganda deyarli yo'q.³ Bu fikrni boshqa olimlar ham qo'llab quvvatlashgan.

¹ Бичурин.Н.Я Собрания сведений о народах,обитавших в Средней Азии в древние времена.М-Л.,1950 316-с

² Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳаррир: А.С.Сағдуллаев.Т."Шарқ" 1998.29-б

³ Лунина С.Б. Города Южного Согда в VIII-XIIвв. Т.Фан, 1984 25-с

Shahrisabzga XX asrning 80-yillarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar masalaning boshqa manzarasini beradi. Shahrisabzning ko'p joyida ilk o'rta asrlar qatlamlari qayd etilgan.

Bundan tashqari, Shahrisabz chekkasiga bir qancha tepa, shu jumladan Balandtepa(Zindontepa) Qalqontepa va boshqalar joylashgan ularning bari o'z maydoniga ko'ra, Beysheda keltirilgan. Kesh poytaxti maydoniga to'g'ri keluvchi murakkab shahar tuzilishga o'xshash juda katta manzilgoh ta'svirini beradi. Shahrisabzga qazish ishlari jarayonida VI-VIII asrlarga oid ko'pgina tanga, shu jumladan, Kesh hukmdori Axurpatga oid boshqa tanga topiladi. Kitobdan bunday tangalar umuman topilmagan bu hol ushbu davrda ayni Shahrisabz pul vositasida savdo sotiq olib boradigan yirik shahar bo'lganligidan dalolat beradi. Bu davrda Kitob atrofida manzilgohlari bo'lgan dehqonlar saroyi joylashgan edi.¹

Arxeolog Z.Usmonovanning fikricha Shahrisabz Barknon o'rnidagi dastlabki manzil V-VII asrlarda vujudga kelgan, Uning negizi Shahrisabzda 300-metr shimolroqda joylashgan Balantepa yoki Zindontepa xarobalari o'rnida bo'lgan. Shu davrda bu yerda mahalliy hukmdorning mustahkam qasri joylashgan bo'lib, uning ichida zardushtiy ibodatxonasi ham bo'lgan. XIX asrda ham mahalliy aholining ayrim vakillari bu joyga kelib, eski zardushtiy dinining ma'budlariga sajda qilganlar. Har yili muqaddas navruz bayramida esa bu yerda xalq sayillari o'tkazilgan. Dastlab bu qasr atrofida devor bilan o'ralmagan manzillar bo'lib, VII-VIII asrlarga kelib ularning maydoni kengaygan. IX- X asrlarga kelib bu shaharcha muhim savdo hunarmandchilik markaziga aylanganligini ta'kidlashgan.²

So'g'd poytaxti Kesh VI- VII asrlardayoq Shahrisabz o'rnida bo'lgan va keying asrlarda ham shu yerda rivojlangan. Shahrisabz hududida joylashgan qadimgi yodgorliklardan Balandtepa (Zindontepa) muhim ahamiyatga egadir. Rivoyatlarga ko'ra, XIV- XV asrlarda tepa o'rnida shahar zindoni joylashgani uchun u Zindontepa deb atalgan. M. E. Massonning fikricha VI- VIII asrlarda bu

¹ Кабанов.С.К Археологические разведки в Шахрисабзском оазисе.// Известия АНУЗ. 1951. 68 с

² Усмонова З.Е Раскопки в Шахрисабзе // Археологические открытия.1984.М. 483-с

yerda baland poydevorli uy- qo'rg'on joylashgan. Hozor ham Zindontepa xarobalarining balandligi 15- 20 metrغا teng.³

Arxeologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida Zindontepaning markaziy qismida yirik inshoot qoldiqlari topib, tekshirildi. Ammo arxeologik qazishmalar davrida topilgan xonalarda oshxona o'choqlari va kul qatlamlari, mahnat qurollari, don saqlash uchun ishlatiladigan katta hajmli sopol idishlar (xumlar, xumchalar) va ro'zg'or buyumlari uchramadi. Balandtepa o'rnida dehqonchilik xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan uy- ro'zg'orning rivojlanganligi o'z isbotini topmadi. Shu bilan bir qator malumotlarga ko'ra, baland va mustahkam poydevor ustiga qurilgan yirik inshoot, xonalarda uy- ro'zg'or, oshxona va xo'jaliklar bilan bog'liq ashyolar uchramaganligi bois Balandtepa o'rnida ehtimol, ilk o'rta asrlarga oid ibodatxona bo'lgandir deb tahmin qilinadi.¹

VII asrda Kesh atrofidan aholi tomonidan qadrlangan maxsus ibodatxona bino qilingan. Harbiy yurishlardan oldin ushbu ibodatxona Keshliklar 10 mingta qo'y qurbon qilib, o'z xudolaridan dushmanlari ustidan g'olib chiqishda madad so'raganlar. Bu voqealar Kesh So'g'diyonaning poytaxti bo'lgan davrga (Shishpir) hukmronligi davri to'g'ri keladi. VIII asrda Keshning mashhur ibodatxonasi vayron etilgan. Kesh hokimlari orasida 600-620- yillarda hukmronlik qilgan Tich (Dichje boshqa manbalarda Ticho) eng qudratli deb ta'rif etiladi. Xitoy yilnomalari Ten- shu va Suy-shuda uning davrida Kesh o'z elchilarini chet ellarga yuborganligi va o'z elchilarini qabul qilgani ta'kidlanadi.²

Yakkabog' tumanida qazish ishlari 1985-1986- yillarda o'rta asrlarga oid uncha katta bo'lmagan feodal mulk markazi bo'lgan Sariqtepada olib borilgan. Shahar atrofida VI- VII asrlarga oid ibodat inshooti bo'lgan bino tadqiq qilindi. S.K.Kabanov va V.D.Jukovlar tomonidan Chimqo'rg'on suv ombori atrofida, S.B.Lunina va D.V.Chunixinlar tomonidan Yakkabog' tumanidan, N.I. Krashinnikova tomonidan Hisor suv ombori mintaqasida olib borilgan.

³ Лунина С.Б. Города Южного Согда в VIII-XII вв. Т.Фан, 1984 25-с

¹ Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳаррир: А.С.Сагдуллаев.Т."Шарқ" 1998.30-б

² Ртвеладзе Э.В. Монеты Кеша// история и культура южных районов средней Азии в древности и средневековья Т 1989.38-39с

Arxeologik tadqiqotlar o'rta asrlar davridagi Qashqadaryoda qishloq turar joyi tarixini umumiy tarzda kuzatish, shuningdek shu davr moddiy madaniyatini tavsiflash imkonini berdi.¹

Sariqtepa feodal mulki yaqinda joylashgan, o'ziga xos bo'lgan ibodat inshooti bu fikrni tasdiqlaydi. Kalta – kichikligi har xil bo'lgan ikki markaziy, ikki yon xonalardan iborat bo'lgan, shimol tomonga chiqariladigan atrofi yo'lak bilan o'ralgan trapitsiyasimon binoning tashqi devorlari shimol va janub taraflaridan ichkariga qayrilgan nova ko'rinishida turtib chiqqan. Ancha katta markaziy xonada maydoncha bo'lgan, yon tomonlardagi (tor yoni berk) xonalarning g'arbiy devorlarida sezilar- sezilmas tokchalar qo'yilgan. Aylana yo'lakning shimoliy qismida ham shunday yo'nalishda otashkada (o'choq) joylashgan.²

Binoga shimoliy-sharq tomondan qurilgan va aylanma yo'lakdan janubiy-sharqga o'tilgan, so'ng sharq tomonga keskin burilgan. Keyin shimoli- sharqga va chiqaverishda g'arb tomonga qarab burilgan; aylanib o'tilsa, dastlab sharqiy yon xonalarga, so'ng markaziy va chiqish oldidan g'arbiy yon xonalarga kirilgan. Bu yerda buyumlardan faqat ko'za va bino tashqarisidan, janubiy g'arbiy burchaklar unga juda yaqin qilib ko'milgan bir nechta xum topilgan. Butun ko'za va arxeologik nuqtai nazardan butun xum shakliga qarab ularni V-VI asrlarga oid deb hisoblash mumkin.³ Ilk o'rta asrlar obektlarida sopol haykalchalar, planshetkalar va ko'proq idish tutqichlaridagi yoki qopqoqlaridagi hajmdor yopishtirma narsalar uchraydi. Tadqiqotchilarning ko'pchiligi ular balo qazodan asrovchi vosita bo'lgan deb hisoblashadi. Bu narsalarning aniq vazifasi yo'q, lekin ma'naviy madaniyat aholining badiiy didi, ma'kurafiy tasavvurlari ko'rtachkichi hisoblanadi. Chunonchi 47-son Nomsiztepada ikki boshli fantastik hayvon haykalchasi topilgan tanasi hamda bir-biriga qarama-qarshi joylashgan va turli tomonga qarab turgan boshlari ham otnikiga o'xshaydi. Boshlarida to'rttadan tasma bor, ular buqaning qulog'i va shihiga taqlidan qo'yilgan bo'lishi mumkin.

¹ Кабанов С.К Нахшеб на рубеже древности и Средневековья (III-VIII) Т.1977.120-с

² Дресвянская Г.Я К истории культов древнего населения Кашкадарьи. Материалы по истории, историографии и археологии. N 533. Т.1977 23-с

³ Шахрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, Тошкент, Шарк, 2002, 89-б

Chechaktepada raqqosa va turkiy changchi boshining sopol ta'sviri uchratilmagan. Qo'rg'ontepada turkey qiyofadagi o'ziga xos murakkab va g'oyat ramziy bosh kiyim kiygan qahramon ta'svirlangan, planshet topilgan shu ko'rinishdagi boshqa obektlar ham ma'lum bir ular ilmiy istefoda kiritilgan. Arxeologik nuqtai nazardan o'rganiladigan eng ko'p topilma turli shakl, hajmga ega bo'lgan, uy-ro'zg'orda, ishlab chiqarishda ibodatda foydalaniladigan sopol buyumlardir ularning bazilari kulolchilik charhida boshqalari qo'lda yasalgan sifati va badiiy bezatilishiga ko'ra ham xar-xil. Bular ko'pincha qadaqsimon shakldagi kosalar, qadahlar, ko'zalar, likopchalar qozonlar, xumlar, xumchalar va boshqalardir. Ular turli rangda angop bilan qoplangan. Yopishtirma yoki bosma elementlari bo'lgan yoxud ozmi ko'pmi murakkab naqsh tirnab tushirilgan ayvonlar qiyofasi tasvirlangan buyumlardir. O'choq tagliklari isiriqdonlar, idishlar, qopqoqlar, ko'pincha ramziy belgilar tushirilgan suzgichlar ham bor. Metall yoki shisha idishlar topilgan. Shisha buymlar parchalari metal buyumlarga nisbatan yaxshi saqlangan shisha buyumlardan bo'rtma naqsh bilan bezatilgan quyma va tuflama shakldagilar ko'proq uchraydi. Sopol parchasidan tayyorlangan yoki maxsus yasalgan urchuq gardishlarni ishlab chiqarish buyumlari jumlasiga kiritishimiz mumkin.¹ Ularning teshigi atrofi ko'pincha konsentrik doiralar yoki radius bo'ylab tarqaladigan tirnama nur bilan bezatilgan shunga qaramay anchagina temir buyumlar-temir pichoq yoy o'qi jez qo'ng'iroqchalar uzuk gardishi topilgan.² Sopol shisha metal tosh buyumlar uy-ro'zg'or ishlab chiqarish, maxsus ibodat buyumlari bo'lishi mumkin. Ularning bazilari xonadon sajdagohlari buyumga o'xshaydi bu buyumlarning bir qismi chetdan keltirilgan bo'lishi mumkin, biroq asosiy qismi ayniqsa ro'zg'or ishlab chiqarishga foydalanishgan. Mahalliy kulolchilik ishlab chiqarishni o'rganish natijasida ham bu fikr tasdiqlandi. Sopol buyumlar pishiriladigan (Sariqtepa Boburtepa) qabri topildi, tog'lodi hududlardagi tekislangan dalalar qayd etildi.

¹ Шахрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, Тошкент, Шарк, 2002, 90-б

² Дресвянская Г.Я. К истории культов дренажного населения Кашкадарьи. Материалы по истории, историографии и археологии. N 533. Т.1977 23-с

2.2 IX-XIII asrlarda arxeologik yodgorliklarning o'rganilishi.

Kesh viloyati IX-XIII asrlarda Qashqadaryo vodiysining sharqiy qismidagi katta hududni egallagan edi. Shimol sharq va janubiy-sharq tomonlardan Turkiston tog'tizmalari bilan to'silib, uning tog'lardagi chegaralari suv ayrig'ichlarigacha yetardi. Baland tog'lar vohani dushmanlardan himoya qiluvchi tabiiy to'siq vazifasini bajarib kelgan. Janubi-g'arbda viloyat G'uzordaryo vodiysini, shimolda esa Qashqadaryoning o'ng sohili bo'ylab joylashgan yerlarni ham o'z ichiga olar edi. M.E.Masson fikricha, Kesh viloyatining o'rta asrlardagi g'arbiy chegarsi hozirgi Qaraytepa xarobalari (Kesh-Nasaf yo'lida) to Bahrintepa xarobalari (Qashqadaryo o'zani yaqinida) gacha o'tkazilgan shartli chiziq bo'ylab o'tar edi. Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, Kesh viloyati bo'yiga ham, eniga ham 4 kunda bosib o'tiladigan yo'lga teng hududni egallagan.¹ IX asr boshlarida Kesh viloyati Movarounnahrning boshqa viloyatlari singari Tohiriylar sulolasiga qarashli yerlar tarkibiga kirib, ma'muriy jihatdan Samarqand shahriga bo'yusgan. IX asrning 2-yillarida Kesh viloyatining davlat xazinasiga kiritadigan yillik to'lov miqdori 112-ming dirhamni tshkil etgan. Bu mablag' qo'shni Nasaf viloyatining yillik to'lov miqdoriga nisbatan ancha ko'p hisoblanadi. Bu esa o'sha davrda Kesh viloyatining iqtisodiyotiga ancha yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatadi.²

Pul muomilasi ham keng ko'lamda rivojlanib brogan, lekin mahalliy bozorlarda davlar tomonidan zarb qilingan to'la qiymatli tangalar bilan bir qatorda past sifatli nisbatan muomilada bo'lgan. Bunday tangalar Keshda ham topilgan. IX asrda Kesh viloyatida Muqanna tarafdorlari hokimyatga qarshi harakatni davom ettiradilar. Lekin Arab hukmdorlari bu qo'zg'alon va g'alayonlarni shafqatsizlik bilan bostirar edilar. Kitob hududida joylashgan qadimgi shaharning asta-sekin xarobaga aylanib borishi ham shu voqealar bilan bog'liq bo'lishi ehtimoldan holi emas.

¹ Массон М.Е. Работы Кешской археолого-топографической экспедиция ТАШГУ(КАТЭ) по изучение восточной половины Кашкадарьинской области// Археология Средней Азии Т.1977.3-63с

² Шахрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, Тошкент, Шарк, 2002, 27-б

IX asrning birinchi yarimida Movarounnahrda hukmdorlarning boshqa bir sulolasi-Somoniylar siyosiy maydoniga chiqdilar. Shu asrning o'rtalariga kelib, Kesh viloyati So'gd tarkibiga avval Nasr ibn Ahmad (864-892) so'ngra uning ukase Ismoil ibn Ahmad (892-907) tasarrufiga o'tadi. Ismoil ibn Ahmad butun Movarounnahrni o'z hokimiyati ostida birlashtirib, arab xalifasiga faqat rasman bo'ysungan deyarli mustaqil davlat barpo etdi. Bunday hol Kesh iqtisodiyotining yanada rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratib berdi. Natijada qishloq xo'jaligi hamda hunarmandchilik ishlab chiqarishning barcha sohalarida farovonlik ko'zga tashlanadi.¹ Shahrisabz o'rnida shakllangan savdo hunarmandchilik markazi juda tez rivojlanib borib, XII asrda kelib, ancha katta hajmga ega bo'ladi. Buning asosiy sabablaridan biri ushbu manzilning Chag'aniyondan Samarqandga boruvchi karvon yo'lida joylashganligi edi.² Arab xalifaligining boshqa hududlardan deyarli mustaqil davlatlar tuzilishi bilan bir qatorda, Movarounnahr ham Somoniylar davlatining barpo etilishi natijasida X asrga kelib joylarda mahalliy hokimiyatning mavqeyi va ahamiyati oshib bordi. Ayni mahalda islom dinining nufuzi ham kuchayadi.³ Shunga qaramasdan, ilk o'rta asrlar Kesh tushkunlikka yuz tutgandan keyin Shahrisabz hududda shakllangan shu nomli manzilgoh qariyb besh asr mobaynida o'z arki va mustahkamlangan devorlariga ega bo'lmasdan qodi. Z.I. Usmonnova tadqiqotlari shundan dalolat beradki, shahar devorlari bu yerda faqat XIV asrning ikkinchi yarimida kelib shakllandi. Kesh-Shahrisabzda IX-XII asrlarda hukmdor qarorgohi va mudofaa inshootlari yo'q ekan, demak uni, Kesh viloyatining ushbu davrdagi ma'muriy markazi deb takidlash ham shubhadek ko'rinadi. Ushbu muammo xali hanus maxsus tadqiqotlar mavzusiga aylangan vaholanki Kesh viloyati bir qator shahar va yirik qishloqlarning XI-XII asrlarda jadal taraqqiy qila borganligi tadqiqotlarda takidlab o'tilgan. Ma'muriy markazlarning bir hududdan boshqa hududlarga ko'chishi turli tarixiy davrlarga xos bo'lib, u tabiiy-geografik, siyosiy yoki ijtimoiy-iqtisodiy sabablar bilan bog'liq bo'lgan.

¹ Кабанов.С.К Археологические разведки в Шахрисабзком оазисе.// Известия АНУЗ. 1951. 188-с

² Лунина С.Б. Города Южного Согда в VIII-XIIвв. Т.Фан, 1984 25-с

³ Крашенинникова.Н.И. Работы в Китабе // АО 1982-М. 1984 474-с

Shahrisabz atrofidagi o'rta asrlar manzilgohlari o'rganish borasidagi dastlabki kuzatishlar IX-XII asrlarda Kesh nisbatan o'rta o'lchamlarga ega bo'lgan shahar ekanligini ko'rsatadi.¹

VIII-IX asrlardagi Kesh uchun bunday vaziyat arab noiblarning ma'lum maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bilan bog'liq bo'lib, Kitob o'rnidagi isyonchi shaharni uning mudofaa inshootlari hamda ilgari barcha Kesh hukmdorlari xususan O.I.Smirnova ma'lumotlariga ko'ra "Kesh hukmdori" yozivi bilan tanga zarb qilgan Shishpir va Axurpat qarorgohi joylashagan arkni qayta tiklamaslikdan iborat edi. Shishpir va Axurpat davriga oid yangi tangalar 1982-yilda ushbu satrlar muallifi tomonidan topilgan bo'lib, ulardagi yozuvlarning o'qilishi E.V.Rtveladze tomonidan amalga oshirilgan.² IX-XII asrlardagi Keshning markaziy shahri qayerda joylashgan degan savolga Arxeologik N.I.Krasheninnikova olib brogan tadqiqotlar Kitob hududida IX-XII asrlarda oid yirik shahar manzilgohlarininig yo'qligini ko'rsatadi, bu turdagi manzilgohlar Shahrisabz va Yakkabog' hududlarida nisbatan ko'proq bo'lgan.Quyida Kesh viloyatininig ba'zi o'rta asr shahr xarobalariga to'xtalamiz. Keshning VIII-XII asrlardagi shaharlari yetarlicha o'rganilmagan, bu borada olib borilgan qazilmalar miqdori ancha kam. Shurflar va kichik hajmli qazilmalar yo'li bilan Kitob va Shahrisabz shaharlari o'rganilgan. Shuning uchun bo'lsa kerak Ibn Havqal tomonidan "tashqi shahar" sifatida tariflangan Shahrisabz o'rnida shahar uzoq davr mudofaa devorlarsiz qolib ketgan.³ Qariyb 10-yil davomida S.B.Dunina boshchiligidagi ekspeditsiya tomonidan Oltintepa yodgorligida qazishmalar olib borilib, natijada o'rta asrlar arxeologik kompleksning aniq strategrfiyasi qo'lga kiritiladi, hunarmandchilik ishlab chiqarilishi qurilish materallari va texnikasi o'rganildi.⁴ 1975-yilda qadar viloyatning yana beshta o'rta asr shaharlari-Xo'jabuzruktepa O'liktepa, Qaraytepa, G'ishatepa, Kishmishtepalar to'g'risida ilk ma'lumotlar bor edi.(ulardan birinchi uchitasi to'g'risida ma'lumotlar M.E.Masson tomonidan e'lon qilingan).

¹ Усмонова З.Е Раскопки в Шахрисабзе // Археологические открытия.1984.М. 483-с

² Ртвеладзе.Э.В, Сагдуллаев.А.С Памятники минувших веков Т Узбекистан 1986 56-с

³ Крашенинникова Н.И. Изучения цитадели Кеша// АО 1977.М.1978 527-с

⁴ Лунина С.Б. Города Южного Согда в VIII-XIIвв. Т.Фан, 1984 26-с

Yaqin davrlargacha Kesh viloyati shaharlari to'g'risidagi ma'lumotlarimiz ushbu yodgorliklar bilan chegaralarnib kelmoqda edi. So'hhgi yillarda ToshDU arxeologiya kafedrası a'zolari faoliyati tufayli ularning ro'yhati ancha kengaydi. Arxeologik matreallar yig'ila borgani sari ular tadqiqotchilar tomonidan umumlashtirildi. Shunga qaramasdan Keshning Mo'gul istilosigacha bo'lgan davri shaharlari mudofaa inshootlari va ichki me'moriy tuzilishi, ularning qishloqlar bilan o'zaro aloqalari yetarlicha o'rganilgan emas. Ma'lumotlarning asosiy qismi faqat yodgorliklarda olib borilgan dastlabki kuzatishlarga tayanadi va yetarlicha asoslanmagan. Bu hol bir yoki ikki asosiy yodgorliklarda keng miqiyosli arxeologik izlanishlar olib borilishi taqazo etadi.¹ Qashqadaryoning sharqiy qismida o'ndan ortiq o'rta asrlar shaharlar qoldiqlari saqlanib qolgan bo'lib, ular fikrimizcha, Kesh rustoqlar markazi bo'lgan. O'rganilgan o'rta asr shahrlari xarobalaridan Chandaroqtepa, Chimqo'rg'ontepa, G'ishatepa, Qaraytepa, Kishmishtepa Sariqtepa G'ishliktepa, Sariqtepa, Arslontepa va Choshtepalar rustoqlar markazlari bo'lishi mumkin.²

Keshning o'rta asrlar shaharlari orasida eng yiriklari- Chimqo'rg'ontepa va Chandaroqtepa bo'lib ulardan birinchisi Shahrisabzdan 22km janubroqda, ikkinchisi 24 km g'arbroqda qadimiy karvon yo'llari yoqasida joylashgan Chimqo'rg'ontepa Samarqandan o'tadigan muhim karvon yo'lida joylashgan. Shaharni keng va chuqur xandoqlari o'rab turgan. Uncha ckatta bo'lmagan lekin mustahkam ark shahristonning Qizildaryoga yo'nalgan shimoliy qismida joylashgan Chimqo'rg'ontepa rejasida qadimgi inshootlar, darvozalar ko'chalar mudofaa devorlari izlari aniq ko'zga tashlanadi. Shahrisabz atrofida joylashgan o'rta asrlar shaharlari ichida ark va murakkab rejaga ega bo'lgan Arslontepa, Choshtepa va Sariqtepa yodgorliklari diqqatini tortdi.

Choshtepa Shahrisabzning janubi-g'arbiy chetida joylashgan. Bir vaqtlar maydoni 10 gektarga teng bo'lgan yirik manzilgohda to'g'riburchak shaklidagi keng xandaq bilan o'ralgan Qo'rg'on (125x100 m balandligi 10m) saqlangan.

¹ Qadimgi Kesh-Shahrisabz tarixidan lavxalar//Ma'ysul muxarir: A.C.Sagdullaev.T."Sharq" 1998.70-716

² Крашенинникова Н.И. Изучения цитадели Кеша// АО 1977.М.1978 527-с

Fikrimizcha. Choshtepa qo'rg'on va mustahkamlanmagan yashash qismidan iborat qurilish tizmini ifoda etadi.¹

Arxeologik ma'lumotlar shundan dalolat beradiki Keshning ko'p yillik o'rta asrlar shaharlari rivojlangan mudofaa tizmi arkka ega bo'lgan. Shu bilan birga bu yerda qo'rg'on ark qismida mustahkamlanmagan shaharlari ham ma'lum(Choshtepa, Oltintepa) so'ngi yillarda dastlabki kuzatishlar yo'li bilan olingan ma'lumotlar Kesh uchun xos bo'lgan o'rta asrlar shaharlarining Yana ikki to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi: 1) Uch qismdan (ark, shahriston, rabot) iborat. Maydoni 40-50 gektarga yaqin bo'lgan shaharlar. Shahriston tuzilishi to'g'riburchak shaklida ark shaharistonning shimoliy yoki janubiy qismida joylashgan. Rabot maydoni Chimqo'rg'ontepa va Chandaroqtepa misolda qarasak devor bilan o'ralgan Shahriston maydonida bir necha bor katta. Shu turga O'liktepa, Qamaytepa, Arslontepa yodgorliklari ham oid. Sariqtepa va G'ishatepa kabi yodgorliklari ham yuqoridagi qurilish turning o'ziga xos qismini tashkil qilib, hali yetarlicha o'rganilmagan. 2)Maydoni 10-15 gektarga teng bo'lgan ikki qismdan iborat shaharlar. Ark shaharistonning burchaklaridan birida yoki uning tashqarisida joylashgan Asosiy aholi yashash qismi mudofaa devori bilan mustahkamlangan. Bu turga Oltinboshtepa, To'rtko'ltepa, Sariqtepa yodgorliklari kiradi. Ushbu tuzilish dastlabki arxeologik tadqiqotlar natijasidir, chunki hali shaharlar-Kesh rustoqlar markazlari tuzilishiga doir yetarlicha arxeologik(shuningdek yozma) ma'lumotlar yo'q.² Bularning barchasi vaqt o'tishi bilan o'rta asrlardagi Kesh viloyatining poytaxti qoldiqlari saqlanib qolganligi to'g'risida gapirish imkonini beradi. Ulardan dastlabkisi Kitob o'rnida joylashgan bo'lib, IX asrgacha mavjud bo'lgan. IX- XII asrlar Keshning qarorgohi "Al-Musalla" degan joyida, hozirgi Shahrisabz hududida keyinchalik olib borilgan. Arxeologik tadqiqotlar Keshning IX- XII asrlardagi qarorgohini aniqlash masalasiga yetarlicha aniqlik kiritishi mumkin bo'lib, fikrimizcha u Choshtepa o'rnida joylashgan. Shu bilan birga IX-XII asrlarda Kesh ikki qismdan – ark va

¹ Шаҳрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, Тошкент, Шарқ, 2002, 25-б

² Қадимги Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳаррир: А.С.Сағдуллаев.Т."Шарқ" 1998.70-71б

mustahkamlangan shahristondan iborat bo'lgan nisbatan o'rta hajmli shahar bo'lgan bo'lishi mumkinligini ham inobatga olish kerak. Ushbu turga Choshtepa bilan birgalikda hozirgi Shahrisabzdan g'arbda joylashgan Sariqtepa yodgorligi ham kiradi. Sariqtepa yodgorligining maydoni 3 gektarga teng.¹

Shahrisabz atrofidagi o'rta asrlar manzilgohlari o'rganish borasidagi dastlabki kuzatishlar IX- XII asrlarda Kesh nisbatan o'rta o'lchamlarga ega bo'lgan shahar bo'lib, shu o'lchamlarga ko'ra Kesh shahri ko'pgina o'z rustoqlari markazlaridan yirikroq bo'lganligini tasdiqlaydi. Fikrimizcha, X asr arab geograflari tomonidan Keshning "tashqi shahari" sifatida talqin qilingan shahar shahrisabz o'rnida rivoj topgan. Uning qarorgohi Choshtepa va Sariqtepa turidagi yodgorliklarda joylashib IX- XII asrlardagi savdo va hunarmandchilik manzilgohi Shahrisabzning tashqi qo'rg'oni bo'lgan.² Kesh hududida Qoraxoniylarning XI- XII asrlarga oid tangalari tez- tez topilib turadi. Bunday tangalar shahar hududida ham (masalan, Oqsaroy yonidagi Shurfdan) topilgan. Oltintepa xarobalaridagi kulollik maydoni yonidagi xonada olib borilgan qazishma ishlarida esa Ibrohim ibn Al- Husayn nomidan 1178- 1180 yillarda zarb qilingan 31 ta kumush dirxamidan iborat xazina topilgan. Xorazmshox Muhammad ibn Takash tangalari ham bu hududlarda ko'p uchraydi.³

Islom davri manbalaridan Kesh to'g'risidagi ilk ma'lumot At- Tabariyning tarixiy asarlarida Muqanna boshchiligidagi qo'zg'olon tasvirida uchraydi. IX asr muallifi Al- Yoqibiy Keshni "So'g'dning bosh shahri" deb, uning zamondoshi Ibn Al- Foqiq esa "Samarqand viloyatidagi shahar" deb tavsiflashgan. X asr oxirida Al-Maqdisiy Keshni Buxoro viloyati tarkibiga kiritgan.⁴

X asr arab geograflari o'sha davrdagi Keshning tarixiy topografiyasiga oid ayrim ma'lumotlarni keltirganlar. Xususan, Ibn Havqal o'zining geografik asarida shahar tuzilishining batafsil tavsifini keltirgan bo'lib bu ma'lumotlar tadqiqotchilar

¹ Усмонова З.Е Раскопки в Шахрисабзе // Археологические открытия. 1984. М. 483-с

² Лунина С.Б. Города Южного Согда в VIII-XII вв. Т.Фан, 1984 26-с

³ Ртвеладзе.Э.В, Сагдуллаев.А.С Памятники минувших веков Т Узбекистан 1986 56-с

⁴ Бетгер Е.К. Извлечение из книги "Пути и страны" Абул Касыма ибн Хаукаля // Тр САГУ. Археология Средней Азии. вып. IV

tomonidan qayta- qayta istiqoda qilingan. Uning tavsificha Kesh ko'handiz (ichki qal'a) hisn (shaxriston) rabot (tashqi shahar) lardan iborat bo'lgan. Shuningdek, rabodga yondosh boshqa bir shahar ham bo'lgan. Ko'handiz joylashgan ichki shahar X asrda vayron bo'lib yotgan tashqisi esa obod bo'lgan.¹ Kesh shahar darvozalari yaqinida ikki daryo oqib o'tgan. Biri – Nahr al – Kassorin (Tozalovchi daryosi) deb nomlangan. U Siyom tog'laridan boshlanib, shaharning janub tomonidagi darvozalar yaqinidan oqib o'tgan. Ikkinchisi Nahr Asrud bo'lib, Qash rustoqidan boshlanib, Keshning shimoliy tomonidagi darvozalar yonidan oqib o'tgan. Shaharda va rabodda oqar suv mo'l bo'lib, bu yerda ajoyib bog'- rog'lar barpo etilgan. Kesh iqlimi g'oyat issiq bo'lgani tufayli bu yerda mevalar Movorounnahrda eng erta yetilib, Buxoro bozorlariga birinchi bo'lib yetishtirilgan.² Shu tariqa X asrda Kesh shahri bir – biriga yondosh joylashgan va bir- biri bilan bog'liq bo'lgan to'rt qismdan tashkil topgan.

Vayronaga aylangan ichki shahar hamda ko'handiz Qalandartepa va Kitob hududidagi antik shahar o'rnida aniq joylashgan. O'rta asrlardagi Keshning qolgan ikki qismi- rabod va tashqi shaharga kelganda, olimlarning ular o'rnini aniqlash borasidagi fikrlarida tafovut bor. Chunonchi V.V.Bartold ikki darvozali rabodni "tashqi shahar " deb hisoblagan.³

S.K.Kabanov Keshning tashqi shahri hozirgi Shahrisabz o'rnida bo'lgan deb taxmin qilgan. Boshqa bir tadqiqotchilar ham shunday fikr bildirishgan.⁴

Biroq M.E. Masson Shahrisabz o'rnidagi manzillar XIII asrdan oldin mavjud bo'lmagan deb hisoblagan.

Shuningdek o'rta asrlardagi Kesh shahri Shahrisabz o'rnida, ikkinchi rabod yoki tashqi shahar esa o'sha paytda al – Musallo deb nomlangan. Kitob o'rnida bo'lgan degan fikr ham mavjud.¹

¹ Беленицкий А.М, Бентович.И.Б.,Бальшаков О.Г Средневековый город Средней Азии. 1973.188-189 с

² Бетгер Е.К. Извлечение из книги "Пути и страны" Абул Касыма ибн Хаукаля//ТРУДЫ САГУ Т.1957.19-20с

³ Бартольд В.В Туркестан в эпоху монгольского нашествия Сочинения в 9 томах М.1963.188-с

⁴ Кabanов.С.К Археологические разведки в Шахрисабзком оазисе.// Известия АНУЗ. 1951. 68-с

¹ Лунина С.Б. Города Южного Согда в VIII-XIIвв. Т.Фан, 1984 27-с

V.V.Bartold ichki shaharning to'rt darvozasidan faqat bittasi – Bob al – Kassoriyning o'rnini aniqlab, u Nahr al – Kassorin daryosi, ya'ni hozirgi Oqsuvdaryo oqib o'tgan janub tomondajoylashgan, deb hisoblangan.²

Manbalarda Keshning shahar darvozalari sanab o'tilganda Bob al – Kassorindan so'ng Bob al – Madina ad – doxila, ya'ni ichki shahar darvozasi keladi. O'sha manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, Keshning tashqi shaharning ikki darvozasidan biri ham ichki shahar darvozasi yoki tashqi shahar darvozasi deb nomlagan. V.V.Bartold al-Maqsideyning ma'lumotlarini aniqroq, deb hisoblagan.³ Bizningcha, Keshning “tashqi shahari” yoki, “tashqi rayoti” manbalarda ko'rsatilganidek, “ichki shahri” va “ichki rayot” ga yondosh bo'lgan. U taxminan antik ichki shahardan g'arbda va janubiy-g'arbda, ya'ni “qo'rg'on” qalasi vayronalari yotgan joyda yuzaga kelgan o'rta asrlardagi Kesh atrofida joylashgan bo'lishi mumkin. Binobarin Kesh ichki shahar darvozalari g'arbiy yoki janubiy-g'arbiy darvoza bo'lgan. Shunday bo'lsa Kesh ichki shahar darvozasi manbalarda soat millari harakati tartibida sanab o'tilgan hisoblanadi.⁴ XI-XII asrlarda shahar yanada karvon yo'li bo'ylab janubiy-g'arbgacha Shahrisabz o'rniga ilk o'rta asrlar davrida Keshning savdo hunarmandchilik yo'ldosh shaharlari vujudga kela boshlagan joyga kelishgan. Ayrim tadqiqotlar uni X asr manbalarida eslatib o'tilgan Keshning tashqi shahri deb hisoblaydilar. Kitob o'rnidagi shahar VIII asr oxirigacha mavjud bo'lgan. So'ng tiklab kelingan, degan fikr ham keng tarqalgan. Biroq ayrim manbalardagi ma'lumotlar bunga zid keladi. X asrda ichki shahar hududida zindon va So'g'dagi eng go'zal masjidlardan hisoblangan Kesh Jome masjidi ishlab turgan.⁵

Bu yerda X asrning birinchi yarimida hayot davom etgan, chunki al-Istahriy ichki va tashqi Kesh shahri bir vaqtda mavjud bo'lganligini qayd etgan. X asrning so'nggi chorragida “Xudud al-olam” da ham ko'handiz va shahriston Yoziqa'la

² Бартольд В.В Туркестан в эпоху монгольского нашествия Сочинения в 9 томах М.1963.188-с

³ Шахрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, Тошкент, Шарқ, 2002, 29-б

⁴ Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳаррир: А.С.Сағдуллаев.Т.”Шарқ” 1998.70-71б

⁵ Крашенинникова.Н.И. Работы в Китабе // АО 1982-М. 1984 407-с

hamda ichki shahar haqida shaharning hayot davom etayotgan qismlari sifatida gap boradi. Faqat ibn-Havqal va al-Maqsidiylargina ko'handiz va ichki shahar vayrona holida yotganligi haqida yozganlar.¹

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Qalandartepaning shimoliy qismi VIII-IX asrlarda ham obod qilingan.² Qal'a hududida XII asr-XIII asr boshlarida kelgan hayot izlari ham mavjud. Ichki shahar hududida X-XI asrlarda ham hayot davom etgan bo'lishi mumkin, buni o'z vaqtida S.K.Kabanov ko'rsatib o'tgandi. Har holda X asrda ham bu hudud Kesh shahrining tarkibiy qismi bo'lganligi va musulmonlar yashagan shaharning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lish Jome masjidi shu yerda joylashganligi shubxasizdir. Keshning tashqi shahri X asrda Shahrisabz o'rnida, Keshning hukmdor qarorgohi va Namozgoh joylashgan ma'muriy markazi esa Shahrisabzdan g'arb yoki janubiy tomonidagi shaharlarning biri o'rnidagi al-Musallo mintaqasida joylashgan degan fikr ham mavjud. Biroq manbalarda keltirilgan ma'lumotlar bunga zid. Manbalarga ko'ra, X asrda Keshning tashqi shahar devorida ikkita darvoza bo'lgan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, IX-X asrlarda Shahrisabz o'rnida mavjud bo'lgan shahar qal'a devorlari bo'lmagan. Bundan tashqari, agar Keshning ma'muriy markazi Shahrisabz atrofida joylashgan bo'lsa, u jome masjiddan 7-8 km narida bo'lardiki, buning ehtimoli ham, o'sha asrlarda Jome masjidini musulmonlarning shahar hayotida asosiy o'rin tutgan va odatda, ma'muriy markaz yaqinida joylashgan. Bizningcha, o'rta asrlardagi Kesh Shahrisabz to'rtala tarkibiy qismi, manbalarda ko'rsatilgandek, yonma-yon joylashgan va bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan.³

Manbalarda Kesh shaharning kattaligi X asrda taxminan bir forsahning uchdan biriga teng bo'lgani ko'rsatilgan, bu 2.5 km tashkil qiladi.

M.E. Masson "forsahning uchdan biri" o'rniga "uch forsah" deb o'qishni hamda bu hajmni Shahrisabz va Kitob atrofida Chim devori o'rab olgan barcha

¹ Ртвеладзе.Э.В, Сагдуллаев.А.С Памятники минувших веков Т Узбекистан 1986 56-с

² Лушпенко О.Н. К истории изучения поселений раннежелезного века долины Кашкадарьи // Древняя и средневековая археология Средней Азии Т., Фан 1990.26-с

³ Шахрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, Тошкент, Шарк, 2002, 30-б

yerlar sifatida tushinishni tavsiya etadi.¹ Biroq keltirilgan matnni bu tarzda o'qib bo'lmaydi, chunki matnda "forsah" so'zi birgalikda, raqam esa muzakkarda berilgan. Shu bois, arab grammatikasi qoidalariga ko'ra, bu yerda faqat "forsahning uchdan biri" deb o'qish mumkin. Binobarin, shahar Kitobdan janubi-g'arb tomonga Shahrisabz va undan Termizga olib brogan karvon yo'li bo'ylab 2.5 km ga yaqin masofaga cho'zilgan bo'lishi mumkin. Ayni mahalda shaharning eni uncha katta bo'lmagan.²

IX-XII asrlarda bu yerga Kesh shahar hayotining markazi asta-sekin ko'cha boshlandi va yangi Jome masjidi qurildi. Ibn Havqal ma'lumotlarga ko'ra Keshning tashqi shahar devoridagi Barknon darvozasining nomi Barknon qishlog'i nomidan olingan. Binobarin Barknon qishlog'i o'rta asrlarda shahar darvozalari orqali chiqilgan karvon yo'li bo'yida joylashgan ancha muhim bir joy bo'lgan ko'rinadi.³ V.V.Bartold Barknon qishlog'i shaharga bevosita tutash bo'lgan deb hisoblangan. Kesh tashqi shaharning Barknon darvozasi janubi-g'arbda, Nasf va Tarmizga olib boruvchi karvon yo'liga olib chiqqan. IX-X asrlarda bu karvon yo'lida Keshga eng yaqin joylashgan yirikroq aholi punkiti Shahrisabz yaqinida karvon yo'li ikkiga ajralgan: biri janubga, Termiz tomonga ikkinchisi janubi-g'arbg'a, Nasaf tomonga kelgan. Bu ma'lumotlarning bari Barknon qishlog'i X asrda Keshning yo'ldoshi shaharchasi bo'lgan Shahrisabz o'rnida joylashgan deyishga imkon beradi.⁴

Shahrisabz-Barknon o'rnidagi dastlabki manzil V-VI asrlarda vujudga kelgan, uning negizini Shahrisabzdan 300 m shimolroqda joylashgan Balandtepa yoki Zindontepa xarobalari o'rnida bo'lgan. Shu davrda bu yerda mahalliy hukmdorning mustahkam qasri joylashgan.

XI-XII asrlarda Kesh shahrining hayot markazi asta-sekin bu yerga ko'cha boshlangan. Aftidan XII asrda bu shaharga Kesh nomi berilgan, Barhnon nomi esa

¹ Массон.М.Е, Пугаченкова Г.А Шахрисабз при Тимуре и Улугбеке.// Труды САГУ, Археология Средней Азии. Т САГУ, 1953.36-с

² Лунина С.Б. Города Южного Согда в VIII-XIIвв. Т.Фан, 1984 27-с

³ Крашенинникова.Н.И. Работы в Китабе // АО 1982-М. 1984 407-с

⁴ Бартольд В.В Туркестан в эпоху монгольского нашествия Сочинения в 9 томах М.1963.188-с

istefodan chiqib, faqat shaharning mahallalarida biriga nisbatan qo'llanila boshlagan. Eng avvalo bo'lajak shahar maydoniga odamlar VI-VIII asrlarda ko'chib kela boshlaganliklari isbotlandi.¹ Shahar maydonida olib borilgan deyarli barcha qazishmalarda hamda ochilgan shurflarda IX-XII asr qatlamlari aniqlangan va ularning qalinligi 1 metrdan 3 metrga yetgan. Oqsaroy peshtoqidan janub tomonda, saroy sathidan pastroqda, pishiqg'isht to'shalgan va sath va X-XI asr keramikasi qoldiqlarni o'z ichiga olgan qatlam kelgan Qoraxoniylar zarb qilidigan tangalar XI asrning birinchi yarimiga oid kumush suvi yuritilgan mis dirhamlar ham shu yerdan topilgan.²

Chorsu gumbazidan 50 metr janubroqda o'tkazilgan qazish ishlarida devorlari bo'lgan hamda pishiqg'isht yotqizilgan imorat qoldiqlaridan iborat katta qatlam olindi. Keramika, shu jumladan qolipga ko'ra, u XI-XII asrlarga taluqli deb hisoblanadi yana ham pastgi qatlamdan esa bir ustaxona qoldiqlari topildi undan tumshig'i uzun shisha idishlar butunligicha topildi yoki ularning parchalari yig'ib olindi. Ustaxona VII-VIII asrlarda yashagan kimyogarga tegishli bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Yana ham janubroqda Chorsu gumbazidan 100 metr chamasi narida, qurilish olib borilayotgan joyidagi qatlamda qazilgan shurfda X asrda, XI-XII asrlar qurilish va sopol qoldiqlari mavjud bo'lgan qatlamlar ochildi. Shaharning g'arbiy devori yonidan ham shunday qatlam aniqlandi. Ko'kgumbazdan shimolqorda olib borilgan qazish ishlarida VII-VIII asrlarga oid imorat qoldiqlari ochildi yuqoriroq qatlamda esa XI-XII asrlarga oid binoga ta'luqli naqshli terrakota parchasi topildi. IX-XII asrlarda xonalarda 2 tadan 10 tagacha xonalar bo'lgan. Ba'zan xonalar bir qator, ketma-ket joylashgan, lekin ko'pincha xonadan tarkibi murakkab va xilma-xil bo'lgan. Uylarning turli-tuman ro'zg'or anjomlari, zargarlik zeb-ziynat buyumlari topilgan.

Uy ichi va sathi va devorning quyi qismi ko'pincha g'ishtdan shakldor qilib ishlangan, devorning yuqori qismi esa ganchli va loyga naqsh berib bezatilgan. Ba'zan xatto sahnda g'ishtdan shakldor qilib tashnob ham qurilgan.

¹ Усмонова З.Е Раскопки в Шахрисабзе // Археологические открытия. 1984. М. 483-с

² Кабанов.С.К Археологические разведки в Шахрисабзком оазисе.// Известия АНУЗ. 1951. 68-с

Sopol quvurlari bir-biriga kiydirib tortilgan suv o'tkazgichlar haqida alohida to'xtab o'tish zarur. Bunda suv hovizga tushadigan oxirgi quvur o'yma naqsh bilan chiroyli bezatilgan. Quduqlar ichidan odatda, pishiq g'isht terib chiqilgan. Yoritish uchun sirkor chiroqlar hamda sopol fonuslardan foydalanilgan.¹ Oltintepada sopoldan yasalgan X asrga oid nayning topilishi xalq sozandonligi rivojlanishidan dalolat beradi. IX-XII asrlarda Keshda metallga ishlov berish, zargarlik, kulollik, g'isht pishirish shishasozlik hunari, gazlama, buya to'qish va boshqalar taraqqiy etgan. IX-XII asrlarga oid Keshda mahalliy metallga ishlov berish ko'p marta qayd etilgan. Jez va temir topilmalar orasidan o'roq, pichoq, kovoncha dastasi, idishlar, tarozi pallalari, ko'zgu, qoshiq, o'smadon uzuklar bo'lgan. Badiiy hunarmandchilik buyumlar ham yaxshi rivojlangan. Badiiy hunarmandchilik buyumlari asosan turli kompazitsiyalardan iborat. Shahardagi singari qishloq joylarda ham arxeologik buyumlar topilgan. Keshda bu davrda kulolchilik yaxshi rivoj topgan. VI-VIII asrlardagi kulollar mahallalari (Bovurtepa, Munchoqtepa, Sarvontepa) aniqlab urganildi.

IX-XII asrlardagi Oltintepa, G'ishtepa Chondoroqtepa va boshqalar atrofidagi kulollar va g'isht pishuruvchilar mahallalari ma'lum. Kesh vohasi aholisi ro'zg'orda sopol buyumlardan keng foydalanganlar. IX asrdan boshlab sopol ikki guruhga sirkor va sirsiz sopolga bo'lingan. Sirsiz sopol uy –ro'zg'orda va xo'jalikda ko'p ishlatilgan. Bular hajmi xilma-xil xumlar katta xumlar qozonlar va boshqa turlarga bo'linadi. Bunday sopollarga chizma naqsh, bosma naqsh tushirilgan. Bazi hollarda boshdan oyoq bosma naqsh tushirilgan. Ko'pincha hatto ovqat pishirishda ishlatiladigan o'tga chidamli qozonlar ham shunday bo'yoq bilan bezatilgan.²

¹ Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники зобразительного искусства Узбекистана. Т,1959.166-с

² Шахрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, Тошкент, Шарк, 2002, 93-б

I.3 Kesh vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri tarixi va madaniyatiga tutgan o'rni.

O'rta Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan bo'lgan Shahrisabz ancha murakkab davrlarni boshdan kechirgan o'lka hisoblanadi. Shahrisabz qadimiyligi va O'rta Osiyo tarixida ma'lum o'rin egallagani tufayli, bu voha haqida ma'lumotlarni turli davrlarda yozilgan manbalarda uchratish mumkin. Keyingi ming yillikda yozilgan tarixi-geografik, va boshqa asarlarga nazar tashlansa, ulardan bazilaridagina bu hudud haqida bir muncha tavsilotlar berilgani, ayrim manbalarda esa qisqa eslatmalargina o'rin olganini ko'rish mumkin.¹

Qashqadaryo vohasining sharqiy qismida I minyillik boshlari- o'rtalariga oid yodgorliklarda o'tkazilgan tadqiqotlar va arxeologik majmualar taxlili aholining voha bo'ylab joylashishi, yagona xo'jalik-madaniy turi mustahkamlanmagan markazlar qurilishi, qurilish ishlarining yuqori darajasi, turli me'moriy-trk usullarning qo'llanilishi, rivojlangan kulolchilik va metallchilikning mavjudligi, hunarmandchilikda turli kasblarning vujudga kelish singari o'ziga xos xususiyatlarni ajratish imkonini beradi. Manzilgohlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga ularning Baqtriya, Marg'iyona va o'rta sharq davlatlariga olib boruvchi muhim savdo yo'llarida joylashganligi ham sabab bo'lgan.²

Aynan bu hududdan 30 dan ortiq qa'lalar, uy-qo'rg'onlar, qishloq va shahar xarobalari topilgan. O'rganilgan ma'lumotlar asosida yodgorliklarning ilk bor o'zlashtirilishi mil.avv IX-VIII asrlarga oid ekanligi aniqlandi. Bu yerdagi qadimgi yodgorliklardan topilgan arxeologik ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki bu hudud haqiqattan ham Markaziy Osiyodagi madaniyati rivojlangan o'lkalar qatorida muhim o'rin egallagan. Kesh toponimi dastavval Zardusht kabasi deb atalmish joydagi Shopur I (242-273) bitiklarda uchraydi. Unda Shopur I o'z davlati chegaralarni shu jumladan O'rta Osiyodagi Kash, So'g'd va Shosh tog'larigacha yetib kelgan chegaralarni tasvirlaydi.

¹ Qadimgi Kesh-Shahrisabz tarixidan lavhalar//Ma'ysul muharrir: A.C.Sagdullaev.T."Sharq" 1998.10-6

² Крашенинникова.Н.И. Работы в Китабе // АО 1982-М. 1984 407-с

Ko'p tadqiqotlar Kash (KS) toponimi Qashqadaryo vodiysidagi Kesh bilan aynan bir joyda hisoblashadi. V.G.Lukonin esa bu joy Koshg'ar bo'lishi mumkin deb ham taxmin qiladi.¹ Tyanshuda Kesh toponimi Kyusha shaklida 656-660 yillarga oid voqealarni qayd etilgan. Xuddi shu nom bu yerda VIII asr hukmronlik qilgan Kesh hukmdori Ixrid filslarida ham uchraydi. Shunday qilib mazkur ma'lumotlar Kesh nomi milodiy III asrdan VIII asrgacha mavjud bo'lganligidan guvohlik beradi, biroq mazkur toponim milodiy III asrdan oldin qo'llanilmagan degan manoni bermaydi. Shunday ekan bu hudud haqidagi ma'lumotlar hozirgi kunga qadar yangilanib, o'rganilib tadqiqotlar asosida o'z ifodasini topib bormoqda.²

Musulmon yozma manbalarda Kesh nomi dastavval VII asr oxiri-VIII asr boshlarida qo'llanilgan. Ularda shaharning uch xil: Kash, Kish, va Kesh shaklida yozilishi uchraydi. Biroq qay biri ulardan to'g'riroq ekanligi masalasi xozirgi kungacha noaniqligicha qolmoqda. Vodiy hududidagi manzilgohlarni arxeologik o'rganilishning ilk bosqichi albatta S.K.Kabanov 1946-1950 yillar bilan bog'liq. Bir qator tumanlarni, shu jumladan, Kitob tumanini ham o'rganish maqsadida aylanib chiqishdan ko'zlangan asosiy maqsad "sinflar paydo bo'lduncha amal qilgan jamiyatlar obidalarni" aniqlashdan iborat bo'lgan. Lekin Tanxozdaryo (Shahrisabz tumani) quyi oqimidagi Jar tepa va Chiroqchi yaqinidagi Choch tepa manzilgohlari atrofidan topilgan turli sopol buyumlar orasidan antik davrga oid matreallar ham bor edi. Makrit atrofidagi Zarafshon tizma tog'i janubiy tarmoqlari bu yerda Qo'rg'ontepa va Xovustepa manzilgohlari bo'lgan antik davrga xos mikrovohani ajratish imkonini berdi. S.K.Kabanov tomonidan Qashqadaryoninig so'l sohili bo'ylab Jangal tepa manzilgohida III-V asrlar majmualarni ochib bergan keng ko'lamli ishlar olib borildi.

O'ng sohil bo'ylab g'arb tomon 1.5 km masofada avvalgilarga o'xshahs kichik Qizil tepa arxeologik nuqtai nazardan o'rganildi, va bu yerdan topilgan

¹ Кabanov.C.K Археологические разведки в Шахрисабзском оазисе.// Известия АНУЗ. 1951. 68-с

² Ртвеладзе Э.В. Монеты Кеша// история и культура южных районов средней Азии в древности и средневековья Т 1989.42-с

tangalarda Zevsning taxtga o'tirgan holdagi ta'sviri diqqatga sazovordir. Bu esa antik davr madaniyatini So'g'dga tarqalganligini bildiradi.¹

Ilk temir davri O'rta Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim o'rin egallagan So'g'diyona o'lkasi turli qadimgi manbalarda turli nomlar ostida eslatilib o'tiladi. Bu nomlarning kelib chiqishi va ularning ma'nosi haqida hozircha Aniq fikr yo'q. Mil.avv IV- asrda Qashqadaryo hududida uchta viloyat Nautaka, Ksenippa, Gabaza bog'lanadi. Bu haqda yunon tarixshunosi Arrian va Rimlik Kursiy Ruf ma'lumot berishadi. Yunon mualliflarning asarlari biz ko'rib chiqayotgan o'lkaning tarixiy-geografiyasini dolzarb muammolarni hal qilishda muhim asos bo'ldi. Tadqiqotlar natijasida bu yerdan topilgan turli sopol buyumlar o'sha davr uchun juda muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.² Shxrisabz tarixiga oid bir qancha asarlarda turli xil ma'lumotlar aks etgan. Bu asarlarda Kesh viloyatining tabiiy geografik o'rni, tabiati aholisi shaharlari haqida bir qancha qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Umuman olganda bu hududdan yetishib chiqqan mashhur insonlar ham hududni dovrug'ini dunyoga yoyishga katta xizmat qildi. Ayniqsa ilk o'rta asrlarda vaziyat ancha chigal davrlarni boshdan kechirdi. Bunga asosiy sabab qilib arablarning O'rta Osiyoga hujumini keltirib o'tishimiz mumkin. 672-yilda Turk xoqonligi inqirozga yuz tutgandan so'ng Samarqand yuksalishi kuzatiladi va Kesh Samarqand hukmdorlari Ixshidlarning o'z ustidan hokimyatini tan oladi. Kesh ilk o'rta asrlarda ham So'g'd konfederatsiyasining mahalliy hokimlari orasida yetakchi mavqe uchun kurashgan.³ Ibn Xavqal va al-Maqsideylar tomonidan keltirilgan Keshning tarifi Eski Kesh (Kitob) va yangi Kesh(Shahrisabz) ga to'g'ri keladi. Umuman olganda bu qanchalik to'g'ri ekanligi hozirgi kunda katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Lekin shuni unutmasklik kerakki Eski Kesh vayronaga uchratilgandan so'ng o'z-o'zidan yangi shahar qurish yoki ini qayta tamirlashga o'sha davr aholisi katta jonbozlik ko'rsatgan.

¹ Кабанов.С.К Археологические разведки в Шахрисабзком оазисе.// Известия АНУЗ. 1951. 68-с

² Крашенинникова.Н.И. Работы в Китабе // АО 1982-М. 1984 407-с

³ Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳаррир: А.С.Сагдуллаев.Т."Шарқ" 1998.47-б

Arab mualliflari bu hududni yerlarini ser- hosil va unumdorligini ko'p tilga olganlar. Ayniqsa uning hududidan oqib o'tuvchi daryolari Asrud(Qashqadaryo) daryosi bu Qashqurd rustoqidan oqib, Keshdan shimolroqda o'tgan. Keyingi daryo esa "Mato bo'yovchilar daryosi" (Oqsuv) esa shaharning janub tomondan oqib o'tgan. Daryoning nomidan ham ko'rinib turibdiki Kesh aholisining an'anaviy mashg'ulotlaridan biri bo'lmish to'qimachilik to'g'rida ma'lumot beradi. Umuman olganda shaharda kulolchilik temirga ishlov berish qurilish ashyolari va bo'yoq ishlab chiqarish, shishasozlik, qandolatchilik, nonvoylik taraqqiy etgan. Arab mualliflari VIII asr oxiriga kelib Keshning keskin tushkunlikka uchrashi sabablariga to'xtalishmaydi, Buni eng avvalo Muqanna isyoni bilan izohlash mumkin. Bu voqeadan so'ng ming yil o'tdi. Ko'proq "Muqanna", "Niqobdor" nomi bilan mashhur bo'lgan, 776-783 yillardagi arablarga qarshi qudratli harakat yo'l boshchisi Hoshim ibn Hakim Kesh yaqinidagi Sinan tog' qa'lasini so'ggi maskan qilib, shu yerda olamdan o'tdi. Muqannaning o'limi va uning harakati tormor keltirilishi tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan chunki mahalliy aholining erki va g'ururi uchun kurshgan shaxsdir.¹

Xalifalik noiblarning So'g'da amalga oshirilgan va ma'lum maqsadalarga yo'naltirilgan siyosati bir vaqtlar kuchli bo'lgan Keshning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tubdan yemirishga shu bilan isyonchi shahar va uning mustahkam mudofaasini vayron qilishga qaratilgan edi. Shuning uchun bo'lsa kerak ibn Xavqal tomonidan "tashqi shahar" sifatida tariflangan Shahrisabz o'rnidagi shahar uzoq davr mudofaa devorlarsiz qolib ketgan. Ibn Xavqal Kesh qo'rg'oni va uning ichki qismi vayronaga aylanganligi va tashqi madinada aholi yashashi to'g'risida gapirar ekan "Kesh hukmdori qarorgohi madina va rabotdan tashqarida", "al-Musallo" nomi bilan ma'lum bo'lgan joyda joylashganligini maxsus takidlab o'tadi.²

¹ Шахрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, Тошкент, Шарк, 2002, 6-б

² Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳаррир: А.С.Сағдуллаев.Т."Шарк" 1998.67-б

Ibn Xavqalning “Yo’llar va yurtlar” asarida Kesh haqida quydagi ma’lumotlarni saqlagan: “Kesh shahristoni”da to’rt darvoza bor: Temir darvoza uning yonida Ubaydulloh darvozasiva to’rtinchi tashqi shahar darvozasi. Tashqi shaharda ikkita darvoza bor: ichki shahar darvosai va Barknon darvozasi. Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir ar-Tabariyning “Tarix ar-rasul val mulk” asaridir. Bu asrda 915-yilga qadar bo’lgan tarixiy voqealar bayoni, jumladan O’rta Osiyoning VII-IX asrlar tarixini o’z ichiga oladi. Mazkur manbada Kesh (Shahrisabz)ning arab qo’shinlarining ikki yillik (milodiy 669-702-yillar) qamalga matonat bilan qarshilik ko’rsatgani va arablar to’lov olish bilangina kifoyalanib qaytib ketganliklari qayd etilgan.¹ O’rta asr tarixshunoslari va geograflarining asarlarida Kesh haqida ma’lumotlar kam bo’lsada, Ularda voha juda ser hosil, tabiiy boyliklarga boy ekanligi unda ko’plab qishloqlar va rutoq markazlari shaharlar borligi ta’kidlanadi. Yozma manbalar ma’lumotlari arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan birgalikda ushbu davr tarixiy- madaniy jarayonlarni baholash imkonini beradi. O’rta asrlarda Kesh shaharsozlik madaniyati hozirgi Shahrisabzga davom etadi. IX-X asrlarda arab-fors tarixchilari aynan Kesh Shahrisabzga tavsiflashgan, bu davrda Kitob o’rnida, ayrim tadqiqotchilar taxmin qilganidek shahriston joylashishi mumkin bo’lmagan. Chunki Kitobda na IX-X asrlada va undan keyin ham shahar izi yo’q. O’rganilgan arxeologik va yozma manbalar Qashqadaryoning sharqiy qimidagi viloyat va uning shahar markazi uning turli davrlarda turlicha nomlangan deb xulosa chiqarishga asos bo’ladi. Mil.avv IX-VIII asrlarda viloyatning nomi Gava So’g’da edi. Mil.avv VII-IV asrlarda Nautaka, VI-XV asrlarda esa Kesh bo’lgan. Viloyatning markazi mil.avv VIII asrda Uzunqir o’rnida shakllana boshlab, III asrgacha rivojlangan. Shaharning keying davrlar tarixi Kitob-Shahrisabz hududi bilan bog’liq bo’lgan. Yana bir muhim bir ma’lumot yani O’rta Osiyo shaharlari jumladan Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Marv shaharlari singari Kesh vohasining ilk shahar markazi qadimiy hisoblanadi. Bu esa o’z navbatida bu hududga bo’lgan qiziqishni oshirishi tabiiy.²

¹ Қадимги Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳарир: А.С.Сагдуллаев.Т.”Шарқ” 1998.67-6

² Шаҳрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, Тошкент, Шарқ, 2002, 6-6

XULOSA

Mustaqilikka erishgach tarixni o'rganishga bo'lgan yondashuv yangi bosqichga ko'tarildi. Yurtimiz hududidagi qadimiy vohalar, shaharlarni tarixini o'rganish, arxeologik jihatdan tadqiq etish muhim masalalardan biri sifatida qaraldi. O'rta Osiyodagi muhim vohalardan biri Kesh vohasi tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ilk temir davriga kelib Qashqadaryo vohasining sharqiy qismi – qadimgi Kitob –Shahrisabz, Yakkabog' hududlari jadallik bilan o'zlashtirila boshlanadi.

Kesh vohasi hududlarida dastlabki dehqonchilik hududlari paydo bo'lgan bo'lib, uzoq yillar olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilib shunday xulosaga kelish mumkinki, Kesh vohasi hududlari qadimgi Sharqda bo'lib o'tgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy jarayonlardan chetda qolmagan.

Kesh vohasi haqidagi ma'lumotlarni turli davrlarda yozilgan manbalarda uchratish mumkin. Kesh vohasi tarixiga oid ma'lumotlar aks etgan manbalarga Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning "Tarix ar-rusul va-l-muluk" (Tarixiy Tabariy), Abu Zayid Balxiy, Istahriy va Ibn Havqal ijodi mahsulidan iborat. "Kitob al-masolik va-l-mamolik", muallifi noma'lum "Hudud-ul-olam", Abubakr Muhammad ibn Ja'far Narshxiyning "Buxro tarixi", Abu Rayhon Beruniyning "Qonuni Mas'udiy", Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniyni "Kitab al-ansob", Yoqut al-Hamaviyning "Mu'jam al-buldon" kabilarni misol qilib, ko'rsatish mumkin. Mazkur manbalar Kesh vohasining geografik joylashvi, vohadagi qishloq va shaharlar hayoti vohaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli borasida berilgan qimmatli ma'lumotlar bilan ham ahamiyatlidir.

Kesh vohasining qadimgi va o'rta asrlar tarixni mufassal yoritishda V.V.Bartold, V.L.Viyatkin, B.Denike, A.Yu.Yakubovskiy, B.N.Zasipkin, Ya.G'.G'ulmov, T.M.Mirg'iyosov, S.K.Kabanov, S.A.Sudakov, V.L.Varonina,

G.N.Gachanov, M.E.Masson, G.A.Pugachenkova, O.A.Suxareva kabi tadqiqotchilarning izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

V.D.Jukov tomonidan Kindiklitepada qazish ishlarini olib bordi. S.K.Kabanov tomonidan Qashqadaryoning o'ng sohili bo'ylab, Jangaltepada keng miqyosida arxeologik ekspeditsiyalar amalga oshirildi. Shunga o'xshash ekspeditsiyalardan yana biri 1963-yilda M.E.Masson tomonidan KATE-Kesh(Qashqadaryo) arxeologiya-topografiya ekspeditsiyalari ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. Mana shunday ekspeditsiyalari samarasi o'laroq qadimgi Kesh vohasidagi ko'plab arxeologik komplekslar ochib o'rganildi va tahlil qilindi.

Keyingi davrlarda ham bunday ekspeditsiyalar amalga oshirildi. Bular qatorida R.H.Suleymanov va A.S.Sagdulleyevlarni keltirib o'tishimiz joiz. Aynan mana shu olimlarning arxeologik tadqiqotlari, ilmiy izlanishlari Qashqadaryoning sharqiy (Kesh) va g'arbiy (Qarshi) vohasi shaharlarini yoshini aniqlashda va O'rta Osiyo shaharsozlik madaniyatida tutgan o'rnini belgilashda muhim poydevor bo'lib xizmat qildi.

Umuman olganda Kesh vohasi sharqiy So'g'dning balki O'rta Osiyoning eng rivojlangan vohalaridan biri ekanligi va uning qo'shni hududlar bilan yaqin madaniy aloqada bo'lganligini yuqoridagi fikrlar ham isbotlaydi. Shunday ekan bu vohani o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora oshib bormoqda, bu esa tadqiqotchi arxeologlar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бусағасида хафсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т, “Ўзбекистон”, 1997, 137-б
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йуқ.Т Шарқ, 1998,29-б
3. Абдуллаев.К.,Раджабов.С. Теракотовая плитка с изображением Диониса и сатира из Кашкадарьи //ИМКУ.Самарқанд, 2000 111-114 с
4. Альбаум Л.И Живопись Афросиаба. Т,1975 рангли жадвал
5. Альбаум Л.И. Балалыктепе.Т, 1960 172-с
6. Бартольд.В.В Кеш, Соч Т.ІІІ М.1965 460-с
7. Беленицкий А.М, Бентович.И.Б.,Бальшаков О.Г Средневековый город Средней Азии. 1973.188-189 с
8. Белецкий А.М Раскопки на городище древнего Пенджикента в 1955.г Душанбе. 1964.Т.13 50-с
9. Бетгер Е.К. Извлечение из книги “Пути и страны” Абул Касыма ибн Хаукаля // Тр САГУ. Археология Средней Азии. вып. IV
- 10.Бичурин.Н.Я Собрания сведений о народах,обитавших в Средней Азии в древние времена.М-Л.,1950 316-с
- 11.Ворорина В.Л Архитектурные памятники Древнего Пенджикента.//Труды ТАЭ,т.3,М.-Л.,1953.130-с
- 12.Дресвянская Г.Я К истории культов древнего населения Кашкадарьи. Материалы по истории, историографии и археологии. N533.Т.1977 23-с
- 13.Ешов Б.Ж. История и культура Согдианы VII-IV вв Т.,1999, 10-с.
- 14.Ешов.Б Ўзбекистонда давлат ва махаллий бошқарув тарихи Т.2012 67-69 б.
- 15.Кабанов С. К Археологические разведки в Шахрисабзком оазисе 109-с.
- 16.Кабанов С.К Нахшеб на рубеже древности и Средневековья (III-VIII) Т.1977.120-с
- 17.Кабанов С.К. В оазисах и степях Кеша и Нахшаба Т., “Ўзбекистон” , 1988, 37-с.
- 18.Кабанов.С.К. Керамический комплекс из наслоений древнего городища в Китабе// ИМКУ.Т. 1962 42-53с.
- 19.Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар//Маъсул муҳаррир: А.С.Сағдуллаев.Т.”Шарқ” 1998. 10-б.
- 20.Қарши кичик альбом Т., Маънавият, 2006. 16-17 б.
- 21.Киплик. Д.И Техника живописи.М.,1950. 322-с
- 22.Костров П.И Техника живописи древнего Пенджикента. Живопись древнего Пенджикента.М.,1954 162-с
- 23.Крашенинникова Н.И. Изучения цитадели Кеша//АО1977.М.1978 527-с
- 24.Крашенинникова Н.И. Прошлое Китабе. // Вехи времен. Т., 1989.30-с.
- 25.Крашенинникова Н.И. Разрез крепостной стены древнего Кеша. ОНУ,1968 60-с

26. Крашенинникова Н.И. Раскопи в Китабском районе//АО 1983. М. 1985, 533-534 с.
27. Крашенинникова.Н.И Два комплекса керамики. 90-91 с рис.26
28. Крашенинникова.Н.И. Работы в Китабе // АО 1982-М. 1984 474-с
29. Лунина.С.Б Статуэтка лютнистики из Кашкадарьинского оазиса // ОНУ,1983 N.9 42-с
30. Лушпенко О.Н. К истории изучения поселений раннежелезного века долины Кашкадарьи // Древняя и средневековая археология Средней Азии Т., Фан 1990. 27-с.
31. Массон М.Е Работы Кешской археолого-топографической экспедиция ТАШГУ(КАТЭ) по изучение восточной половины Кашкадарьинской области// Т.1977.31-с
32. Массон.М.Е Столице города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен Т.Фан 1973.36-с.
33. Массон.М.Е, Пугаченкова Г.А.Шахрисабз при Тимуре и Улугбеке//Археология Средней Азии. II Труды САГУ. Т .1953 18-с.
34. Маънавият, 2006. 4-5 б. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркистана М: Наука 1963. 263-с.
35. Омельченко А. Районирование типология и внутренняя структура поселений античного времени восточной части южного Согда//. Т.2002 88-90с
36. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники зобразительного искусства Узбекистана. Т,1959.166-с
37. Равшанов П. Қарши тарихи. Т., Янги авлод, 2006, 105-б
38. Ртвеладзе Э.В. Бураков. Ю.Ф, Сулаймонов. Р.Х. Қарши Т.
39. Ртвеладзе Э.В. Монеты Кеша// история и культура южных районов средней Азии в древности и средневековы Т 1989.38-44с
40. Ртвеладзе.Э.В Эюд по исторической географии Бактрии и Согдианы во время похода Александра Македонского/ ВДИ 2000.104-112с
41. Ртвеладзе.Э.В, Сагдуллаев.А.С Памятники минувших веков Т Узбекистан 1986 56-с Сагдуллаев .А.С Древние пути на юге Узбекистана// ОНУ 1981 33-38 с.
42. Сагдуллаев А.С. Лушпенко О.Н. Новые данные к изучению древней Согдских поселений // 1989 41-с.
43. Сагдуллаев А.С К вопросу о второй столице Согдианы. // СА 1988 223-230 с.
44. Сагдуллаев А.С. Раскопки и разведки в долине Кашкадарьи // АО 1979. М., 1980 504-с.
45. Сагдуллаев.А.С Памятники материальной культуры Южного Согда эпохи ранней железа. Культура юга Узбекистана в древности и средневековье. Сборник научных трудов ТашГУ.Т 1987 12-с
46. Сагдуллаев А.С Древние поселения Кашкадары СаУ. N 7. 1979 30-с
47. Ставиский.Б.Я Судьбы буддизма в Средней Азии. М.,1998. 143-144 с

48. Усмонова.З.И К вопросу о ранней античной керамике древней области Кеш// ИМКУ 1973 53-55с
49. Хасанов.М., и Мехендали.С. Раскопки на Сангиртепе в Кашкадары // Археологические исследования в Узбекистана. 2003 Т “Узб миллий энсклопедияси” 2004 183-б
50. Шахрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, Тошкент, Шарк, 2002, 21-б
51. Шишкин.В.А Вараша. Скульптура и живопись древнего Пенджикента М.1955. 162-с
52. Якубовский. А.Ю. ГАИМК-ИИМК и археологическое изучение Средней Азии за 20-лет. // М.1940 16-с.